جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
19-yanvar
№ 4 (4)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

FAXRIYA

G‘ALABA NISHONLI BAYROQ

Tabarruk bayroq! Senga tikilib o‘ylarga tolaman. Seni tug‘ deb atasam, qalbimda tug‘yon tug‘iladi, yalov desam yuragimda olov alangalanadi. Vatanimning shahar va qishloqlarida, ovullarida shunchalik yuksakda hilpirab turibsanki, dilimda samoviy his-tuyg‘ular uyg‘onadi. Bu tuyg‘ularning rangi moviy, yuksakligi samoviy. Ko‘kda o‘n ikki yulduz porlab turibdi. Sen goh oq, goh moviy, goh yashil, goh qizil ranglarda tovlanib, hilpiraganingda kamalakday jilolanasan. Go‘yo momoqaldiroq gumburlab, osmon-u falakka gulduros solgach, sharros yomg‘ir quyib o‘tgandan keyingi beg‘ubor tabiatning olamga ifor taratgan sokinligida tovlangan kamalak singari... Mana shu yashil-moviy jilolangan, yulduzlari bedor, hiloli dunyoga omonlik tilagan sof samo ham, uning bir parchasiday hilpirab turgan muhtasham bayroq ham meniki!



Jangovar bayroq!

Senga boqqanda qalbimda mislsiz kuch-quvvat, mardlik, jasoratni his etaman. Sening mo‘jizalar yaratishing tarixdan ayon. Sohibqiron Amir Temurning afsonaviy zafar yo‘li haqida Sharafiddin Ali Yazdiy bitgan “Zafarnoma” guvohlik beradi: “Sayyid Barakakim, Makkaning shariflaridin erdi va ul mahalda Yer yuzining sodotlarig‘a akram va ashrafi erdi, ul yerda hazrat sohibqiron qoshig‘a tabla va alamkim (jangovar nog‘ora va bayroq), saltanatning alomati turur, o‘zi bila kelturub, peshkash qildi va muborak tilini ochib shahanshohlik mujdasin berdi”.

Bu tarixiy voqea o‘sha vaqtda hali saltanat taxtiga chiqmagan, 34 yoshli Amir Temurga mislsiz rag‘bat bag‘ishladiki, keyinchalik Sohibqironning barcha dushmanlarga qarshi muhorabalarda hamisha qo‘li baland kelaverdi. Bobomizni pirlar qo‘llagan, pirlar taqdim etgan bayroq esa, zafar yo‘llarini ochgan edi. Bobomiz uchta halqa tasviri tovlangan moviy bayrog‘ini bosh uzra ko‘targanida ham moviy osmonlarga qo‘shilib hilpiragan, g‘alaba timsoliga aylangan. Bora-bora bobomizning bayrog‘i yer yuzining yarmini bosib o‘tdi, insoniyat tarixidagi muzaffar bayroqqa aylandi.

Ha, bayrog‘im, sen avvalboshdan jangovar, muzaffar yaralgansan. Andijonda tavallud topgan jahongashta bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur g‘oziy Farmonida yozadi: “Fathnoma”larda bayon qilinganidek, muvaffaqiyat qo‘llari g‘alaba nishonli bayroqlarimizni Dehli, Ogra, Jo‘npur, Xarid Bahor va boshqa o‘lkalarda ko‘tardi”.

G‘alaba nishonli bayroq!

Zafarlarga yo‘llovchi bayroq, hamon dunyoning turli kentlaridagi musobaqalarida g‘alaba qozonib, seni bosh uzra, dunyoning boshqa mamlakatlarining bayroqlaridan ham yuksakroqqa ko‘tarayotgan yurtimning mard o‘g‘lonlarini olqishlaymiz.

Bayroq, sen – birlashtiruvchi kuchsan!

Sen nafaqat yurtimizdagi, balki dunyoga yulduzlar singari sochilib ketgan yurtdoshlarimizni ruhan birlashtiruvchi va kelajakka boshlovchi mo‘jizasan! Senda barchamizni yagona kuch-qudratga aylantiruvchi ohanrabo bor. Sen goh endigina maktab ostonasiga qadam qo‘ygan bolalarning qo‘llarida hilpirasang, goh



Sangardak sharsharasidan taralgan zarrin suv tomchilarida kamalak singari nur taratasan, goh dunyoning eng baland cho‘qqisida hilpirab, samo bilan bo‘ylashasan. Yurtimizdagi eng baland cho‘qqi – “Hazrati Sulton”da ham dillarga g‘urur bag‘ishlamoqdasan. Xalqimizning bayramlarida, tantanali kunlarida qalbimizga quvonchlar ulashasan.

Shunda sening ishonchli qo‘llarda ekaningga shukronalar qilaman.

Kelajakka boshlovchi bayroq!

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish niyatida turli sohalarda fidokorona mehnat qilayotgan Yangi O‘zbekiston yoshlari sening poyingda Vatanni ko‘z qorachig‘iday asrash, uni o‘z sha’ni va nomusiday himoya qilishga qasamyod qiladi.

Dunyo mamlakatlaridagi elchixonalarimiz binolarida, qator xalqaro tashkilotlar qarorgohlarida O‘zbekiston ramzisan. Davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug‘ sanaladi. Sening tavallud ayyoming – tashkil qilingan kuning xalqimiz bayramidir.

Eng muhimi esa, butun dunyo mamlakatlarining ramzlari qatorida teng huquqli, mustaqil O‘zbekistonning timsoli bo‘lib Birlashgan Millatlar Tashkilotining peshtoqida hilpirab turibsan. Tarixiy sana – 1992-yil 2-martdan buyon dunyoning to‘ridan joy olding.

Yurtdoshim, men senga Vatan bayrog‘ini yuksaklarga ko‘tarish baxtini tilayman. Bu sening qalbingga mardlik, birdamlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini baxsh etadi. Shundagina Vatanning munosib farzandi bo‘lasan.

HUMOYUN

MUNOSABAT

TAHDIDLARDAN OGOH BO‘L, ODAMZOT!

O‘tgan 6 yil davomida mamlakatimiz misli ko‘rilmagan transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. Olib borilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar ko‘lamini qisqa satrlarda bayon qilish amrimahol. Ular kirib bormagan sohalar qolmadi hisob. Uning zalvorini his etmoq uchun 2016-yildan ilgarigi hayotimizni bugunimiz bilan qiyoslashning o‘zi kifoya. Davlatimiz rahbarining uzoqni ko‘zlab, puxta o‘ylangan strategik rejalari amalga oshayotgani xalqimizning yorqin kelajakka ishonchini tobora mustahkamlayotir.

Xalqimizning qat’iyati, shijoati va jasorati tufayli qisqa davrda katta yutuqlarga erishildi, barcha sohalar tanazzuldan chiqib rivojlanish sari qadam qo‘ydi. Bu yo‘lga-ku, chiqdik, ammo oldimizda yana qator muammolar paydo bo‘ldi. G‘arb davlatlarida keskin ko‘zga tashlanayotgan ma’naviy tanazzul ko‘rinishlari Internet tarmoqlari orqali bizning hayotimizda ham aks sado berayotgani yoshlarimiz orasida axloqiy fazilatlarimizdan begonalashishga, milliy qadriyatlarimizga befarqlikka sabab bo‘layotgani sezilmoqda.

(Davomi 3-sahifada)

JADIDSHUNOSLIK

“FRANSANI SAODATLI TO‘G‘RI YO‘LGA SOLDILAR...”

Ulkan ijodkorlarga xos xususiyatlardan biri ularning ilk asarlaridayoq teran iste’dodining namoyon bo‘lishidir. Cho‘lpon ana shunday badiiy so‘z san’atkorlari qatorida turadi. Uning dastlabki ijodiy qiziqishlari, she’rlari, maqolalaridayoq mamlakat hayoti va adabiyoti oldidagi dolzarb muammolar, vazifalar aks etdi. Ulardagi badiiy, ilmiy-estetik qadriyatlar, nainki o‘z davri, balki kelgusi zamonlar uchun ham ibrat bo‘lguli darajada ekani bilan ajralib turadi.

“Taraqqiy” gazetasini muntazam o‘qishga kirishganida u 13 yoshlar atrofida edi. Rus tilini o‘rganish zarurati haqida maxsus maqola yozib, “Turkiston viloyatining gazeti”da chop ettirganida 15 yoshga to‘lmagandi. O‘zini qiziqtirgan savollar bilan shu yoshda Ismoil G‘aspiraliga maktub bilan murojaat etadi: savollar shu qadar dolzarb ediki, alloma o‘z javobini “Turkiston viloyatining gazeti”da e’lon qiladi. 20 yoshga borar-bormas yozgan she’rlarida G‘arb mamlakatlari xalqlari hayotida kechgan jahon ahamiyatiga molik hodisalarga munosabat bildiradi. Shu nuqtai nazardan Cho‘lpon ijodining kichik bir qirrasiga, xususan, uning she’rlarida fransuz ozodlik she’riyati motivlari aks etishiga nazar tashlash o‘rinlidir. Shoir ijodida fransuz she’riyati motivlari deganda, uning asarlarida aks etgan Fransiya xalqi hayotidagi ayrim ulkan tarixiy voqealar, jarayonlar, qahramonlar hamda ularga poetik munosabatni nazarda tutamiz.

Cho‘lpon o‘zbek adabiyotiga olib kirgan fransuz motivlari va ularda aks etgan tarixiy hodisalar talqini o‘zbek xalqining dunyoqarashini yangilaydi va pirovardida jamiyat hayotiga muayyan ma’noda ta’sir ko‘rsatadi, deb umid qiladi. Fransuz ma’rifatparvar va ijtimoiy adabiyotidagi eski tuzumni, monarxiyani, xurofot va bid’atni fosh etib, shu tariqa xalqni ozodlikka, erkka chorlash motivlari Cho‘lpon ijodida ayni shu masalalar bilan bir qatorda Vatanni, millatni istibdoddan qutulishga chorlash motivlari bilan to‘yinib boradi.

(Davomi 6-sahifada)

MOZIYGA QARAB..

“KISHI O‘RGANIB, SO‘NG DONO BO‘LUR...”

Bundan 40 yilcha oldin “Adabiy meros“ jurnalida “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvidagi varianti haqida“ sarlavhali bir maqola chop etilgan, maqola muallifi bugun 70 yoshini qarshilayotgan taniqli olim Qosimjon Sodiqov edi. Keyinchalik uning ilmiy faoliyatida bir necha yo‘nalishlar shakllandi. Bular: Qadimgi turkiy obidalarning kompleks tadqiqi; Qadimgi turkiy xalqlar qo‘llagan yozuvlar tizimi; Uyg‘ur yozuvidagi tarixiy-adabiy manbalar tadqiqi; Qadimiy yozma obidalarning lingvopoetik tadqiqi va tahlili.

Q.Sodiqovning ilm ahliga tanilishida “Qutadg‘u bilig”ning til xususiyatlari” tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etdi. Muallif bu asarida asosiy e’tiborni yodgorlikning fonetik va grafik xususiyatlariga qaratgan. U tahlil jarayonida qadimgi turkiy obidalar, “Xuastanift”, “Oltin yorug‘”, “O‘rta Osiyo “Tafsir”i”, “Devon-u lug‘otit-turk”, “Hibat ul-haqoyiq“ va boshqa manbalarni qiyosiy tahlil jarayoniga jalb etgan. Ishdagi umumiy ilmiy-nazariy hamda amaliy saviyaning balandligi shundan.

(Davomi 4-sahifada)

BUGUNNING SHE’RI

JADID BO‘LGIL

“Jadid” gazetasi chiqishi munosabati bilan



Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Saharlar yangragan bongday –
Tug‘ilgin yangi har tongday.

O‘tar har damni o‘zgartir,
Keyin olamni o‘zgartir.

Dil-u joning badal qilgil,
Jadal qilgil, jadal qilgil.

Nadir moling bilan holing?
Shumi bor orzu-a’moling?

Zavolingga sabab shuldir.
Kamolingga talab shuldir.

Adab – yot bo‘lgan olamda,
Jaholat to‘lgan olamda

Nechunki buncha mudroqsan?
Qachon bo‘lgaysan uyg‘oq san?

Jahonda dushman-u do‘st bor,
Hali qancha kam-u ko‘st bor.

Umrni bitta fursat bil,
El-u yurtingni yuksaltir.

Masal bordirki: hechdan kech,
O‘zingdan kech, o‘zingdan kech.

Dalang, lolang uchun o‘rtan,
Qizu bolang uchun o‘rtan.

Kelib elparvar insonlar,
Yaralmish yangi davronlar.

Zamonday yorqin ohanglig‘,
“Jadid” nomli gazit yanglig‘.

Daho, zukkolaring qaytmish,
Ulug‘ siymolaring qaytmish.

Sen ham bedor bo‘l, ey o‘g‘lon,
Bo‘lak yo‘l yo‘qdir, ey o‘g‘lon.

Eling to topgay oroyish –
Na orom bil, na osoyish.

Vatan, millat davomiydir,
Jadid bobong Navoiydir,

Turonsan, mulki Turonsan,
Bugun chin O‘zbekistonsan.

Sirojiddin Sayyid, bilgil,
O‘tar yuz yil, yana yuz yil,

Bu kunlarni g‘azal qilgil,
Jadid bo‘lgil, jadid bo‘lgil.

Bu ochunga nechun kelding?
Magar ochun uchun kelding?

Quyosh har kun jadid bo‘lgay,
El-u yurtga hayit bo‘lgay.

YANGI NASHRLAR

BU KITOBLARNI O‘QIDINGIZMI?

Abdurra’uf Fitrat in Istanbul. Quyest for Freyedom (Abdurauf Fitrat Istanbulda. Ozodlikka intilish).



Muallif: adabiyotshunos olim Zaynobidin Abdirashidov. Kitob 2023-yili Germaniyaning nufuzli “De Gruyter” nashriyotida ingliz tilida nashr etilgan.

Sharq musulmon dunyosida keng tarqalgan islohotchilik harakati XX asr boshlariga kelib Turkistonda ham yoyildi. Ushbu harakat jamiyatning turli sohalarida ko‘zga tashlana boshladi. Xususan, taraqqiyparvar jadidlar, ziyolilarning sa’y-harakati bilan ta’lim, fan, matbuot, san’at va madaniyat jabhalarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi.


Kitob Turkiston jadidlarining peshqadam namoyandalaridan biri bo‘lmish Abdurauf Fitratning qizg‘in ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va adabiy faoliyatiga bag‘ishlangan.

Xususan, uning ilk faslida Buxoroga jadidchilik g‘oyalarining kirib kelishi, tarqalishi, Fitratning ilk siyosiy, ijtimoiy faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Kitobning ikkinchi fasli Fitratning hayot yo‘liga doir tarixiy, biografik va turli ilmiy ma’lumotlar tahlilidan iborat. Shuningdek, ushbu bo‘limdan allomaning Istanbulga ketishidan avvalgi, ya’ni, 1910-yilgacha bo‘lgan hayotiga oid bir qancha ma’lumotlar o‘rin olgan.

Asarda Fitratning milliy o‘zlik masalasidagi qarashlari yangi ma’lumotlar asosida ochib berilib, uning Istanbuldagi hayoti va faoliyati, o‘z g‘oyaviy yo‘lini topishdagi izlanishlari to‘g‘risida hikoya qilinadi.

İsmail Gaspıralı ve XX. Yüzyılın Başlarında Türkistan (Ismoil G‘aspirali va XX asr boshlarida Turkiston). Kitob 2022-yili Turkiyaning “Selenge” nashriyotida turk tilida chop etilgan. Muallif Zaynobidin Abdirashidov.



“Tilda, fikrda va ishda birlik!” deya yo‘lga chiqqan Ismoil G‘aspirali o‘zining yangi g‘oyalari bilan butun turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan ulug‘ shaxsdir.


Uning hayoti va faoliyati haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, biroq Turkiston ziyolilari bilan aloqalariga oid izlanishlar kam. Shu ma’noda, ushbu kitob bu boradagi bo‘shliqni bir qadar to‘ldiradi, deyish mumkin.

G‘aspirali tashabbusi bilan boshlangan jadidchilik harakatidan murod – milliy tafakkurni uyg‘otish va bu orqali mustaqillikka erishish edi. Mazkur harakat XX asr boshlarida Turkiston ziyolilari tomonidan Vatan ozodligi uchun yagona yo‘l sifatida qabul qilingan.

Kitobda barcha turkiy xalqlarning buyuk farzandi Ismoil G‘aspiralining hayoti va faoliyati tarixiy hujjatlar vositasida yoritilgan. Xususan, unda Turkistonda yangi usul maktablarining ochilishi bevosita Ismoilbey nomi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Muallif G‘aspiralining 1893 va 1908-yillardagi Turkistonga sayohatlaridan ko‘zlagan maqsadlarini tahlil etar ekan, “yangi usul”, “yangilik”, “islohot” tushunchalari qayerdan va qanday paydo bo‘ldi, degan savolga javob topishga, ularning mohiyatini buyuk islohotchi G‘aspirali va uning turkistonlik maslakdoshlari faoliyati misolida ochib berishga harakat qiladi.

Turkistonda jadidchilik. Kitob 2023-yili Toshkentda, “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan. Muallif: Zaynobidin Abdirashidov.



Kitobda jadidchilik harakatining Rossiya imperiyasi hukmronligi ostidagi Turkiston xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotidagi muhim o‘rni va ahamiyati haqqoniy yoritib berilgan.

Tadqiqot yetti bo‘limni o‘z ichiga oladi. Har bir bo‘lim, monografiya boblarida alohida masalalar o‘rtaga qo‘yilib, muallif o‘z qarashlarini dalillar va faktlar asosida taqdim etadi.

Ma’lumki, jadidchilik va jadidlar oldida turgan eng dolzarb masala ta’lim sohasini isloh qilish va uni butunlay yangi bosqichga olib chiqish edi.

Mustamlakachi hukumatning Turkistondagi vakillari ham o‘lkani nafaqat siyosiy va iqtisodiy jihatdan, balki ma’naviy tarafdan ham o‘ziga bo‘ysundirish, mahalliy xalqlarni to‘liq ruslashtirish maqsadida e’tiborini birinchi navbatda ta’lim tizimiga qaratgan.

Rus hukumati musulmon ta’lim tizimi davlat tomonidan e’tiborga olinmasa, uning moliyaviy asosi bo‘lgan vaqf instituti bekor qilinsa, ushbu tizim vaqt o‘tishi bilan o‘z-o‘zidan qulashini yaxshi bilar edi... Monografiyaning birinchi bobida shu masala tahlil qilingan.

Milliy o‘zlikni yo‘qotish siyosatiga qarshi o‘laroq jadidlar yangi usul, ya’ni, jadid maktablariga asos solishadi. Ularning millat ravnaqi, yurt ozodligi yo‘lidagi sa’y-harakatlari, xalqni istiqlol uchun kurashga tayyorlash, yangicha fikrlaydigan, yangi bilimlarni mukammal egallagan yangi avlodni tarbiyalash bilan bog‘liq faoliyati monografiyaning ikkinchi bobida batafsil ochib berilgan.

Ismoil G‘aspirali. Dorur-Rohat musulmonlari. Kitob 2022-yili Toshkentda “Akademnashr” nashriyotida chop qilingan.



Kitob ikki qismdan iborat. Birinchi bo‘limda jadidchilik harakatining asoschisi Ismoil G‘aspirali hayoti, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa, ikkinchi fasldan uning “Farangiston maktublari”, “Dorur-Rohat musulmonlari” romanlari va “Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar” risolasi o‘rin olgan.

Kitobning buyuk jadid hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan birinchi qismida Nikolay Ilminskiy boshchiligidagi rus missionerlar guruhining turkiy xalqlar ta’lim tizimini shakllantirish, ularni ma’naviy jihatdan bog‘lab turgan vositalar, jumladan, yagona alifbodan mahrum qilib, har bir mintaqa lahjasi asosida kirill yozuvini joriy etish bo‘yicha olib borgan ishlari haqida so‘z yuritiladi. Missionerlarning bu bilan turkiy millatlarni ichidan parchalab, ularni ruslashtirish va xristian diniga olib kirish siyosatiga qarshi kurashgan G‘aspirali va uning izdoshlari faoliyati haqida muhim ma’lumotlar beriladi.

E’tiborli jihati shundaki, G‘aspirali adabiy asarlari qahramoni toshkentlik Mulla Abbos ismli yigitdir. U tom ma’noda haqiqiy jadid. U avvalo dindosh va millatdoshlarini g‘aflat uyqusidan uyg‘onib, ilm olishga da’vat etadi.

Borar yo‘ling Turkistondir... Kitob 2023-yili Toshkentda “Akademnashr” nashriyotida chop qilingan. Mualliflar: Zaynobidin Abdirashidov, Nodira Egamqulova.



Kitobning so‘zboshi sifatida berilgan tadqiqot qismida Turkistonda milliy matbuotning shakllanishi, bu ishda qardosh xalqlar ziyolilarining amaliy yordami hamda Turkistonda tarqalgan xorijiy matbuot haqida ma’lumot berilgan. Xususan, Ismoil G‘aspirali tarafidan nashr etilgan “Tarjimon” gazetasida Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotidagi muhim masala va muammolarning yoritilishi; Turkiston mahalliy matbuotining ijtimoiylashuvi; matbuotda adabiy til va ta’lim siyosatining aks etishi kabi masalalar yoritib berilgan.

Kitobning ikkinchi qismidan Turkiston vaqtli matbuotida e’lon qilinib, bugunga qadar qayta nashr etilmagan turli mavzulardagi maqolalarning tabdili o‘rin olgan.

MUAMMO

VATANPARVARLIK MAVZUSI QANI?



Yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirishda televideniye, radio va ommaviy axborot vositalarining o‘rni katta. Ayniqsa, telekanallar bu borada alohida o‘rin tutadi. Biroq bugun telekanallarimizda vatanparvarlik mavzusiga yetarli darajada murojaat qilinmoqdami? Bu borada ahvol qanday? Shu savollarga javob topish maqsadida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti xodimlari tomonidan o‘zbek telekanallarining Vatan himoyachilari kunidagi dasturlari o‘rganildi. Afsuski, natijalar qoniqarli emas.

“Zo‘r TV” telekanalining bir kunlik dasturlari ro‘yxati 10-12 tani (musiqiy dastur, kino, telenovella, informatsion va ko‘ngilochar ko‘rsatuvlar) tashkil etadi. Xususan, 13-yanvar kuni quyidagi ko‘rsatuvlar efirga berilgan: “Ertalabdan salom”, “Bu kun” (informatsion dastur), “Oshxona qirollari”, “Zinama-zina”, “Nasriddinning choponi”, “Yor-yor”, “Uzlywood” hamda taniqli xonanda O‘lmas Olloberganovning konsert dasturi. Shu kuni to‘rtta badiiy film namoyish etilgan.“Uzlywood” ko‘rsatuvining taqdim etilgan soni 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan bayramona son ekan. Ko‘rsatuv musiqiy-ko‘ngilochar yo‘nalishda bo‘lgani uchun harbiy san’atkorlar ishtirok etishdi. Ko‘rsatuvning nomini ham o‘zbekcha atasa bo‘lardi. Tilimizda qanday go‘zal so‘zlar bor, gibrid nom topishga hech qanday zarurat yo‘q edi, bizningcha. Telekanalda ushbu sanada namoyish etilgan filmlar ham bayramga mos – vatanparvalik ruhidagi filmlar.

Telekanalda har kuni “Saboq” nomli turkum telenovellalar namoyish etiladi. Ushbu telenovellalar telekanalning Yutub kanaliga “Ersiz qolgan opa”, “Qayniukam tegajog‘liq qildi”, “Rossiyada aldanganlar”, “San’atga qarshi ota-ona”, “Qaytib ketgan sovchilar”, “Dushmanlik qilgan dugona”, “Ochko‘z pochcha”, “Bolalarni o‘ldirgan ota” kabi nomlar bilan joylangan bo‘lib, ko‘proq shov-shuvga urg‘u berilgani bilinib turibdi. Biz bunda ijodkorlarni ayblamaymiz, chunki xususiy telekanal aynan shu “ko‘rishlar” soni evaziga ishlaydi. Biroq telenovella ijodkorlari hayot mantig‘idan, millat ma’naviyatidan uzoqlashmagan holda tomoshabinning vaqtini o‘ldiradigan emas, uning vaqtini mazmunli qiladigan mavzularni ko‘tarib chiqishsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

“Sevimli” telekanalining bir kunlik dasturlari ro‘yxati 8-10 ta (musiqiy dastur, kino, telenovella, informatsion va ko‘ngilochar) ko‘rsatuvlarni tashkil etadi. 13-14-yanvar kunlaridagi dasturlarda vatanparvarlik ruhi unchalik sezilmadi. Telekanal dasturlari davlat tiliga hurmat, ma’naviyat, tarbiya, axloq va vatanparvarlik tuyg‘usi bilan to‘yintirilishi maqsadga muvofiq. Telekanal dasturidan bir kunda kamida 5 ta badiiy va multiplikatsion filmlar namoyishi o‘rin olgan.

Telekanal ijodkorlari biror-bir ko‘rsatuvni tayyorlayotganda o‘z missiyasini unutib qo‘ymasligi lozim. Zotan, millatning ma’naviy qadriyatlarini hurmat qilish, tomoshabinga har tomonlama foydali telemahsulot tayyorlash bugungi media vakillarining jamiyat oldidagi burchi hisoblanadi.

Nomidayoq o‘z konsepsiyasini tomoshabinga eslatib turadigan “Milliy” telekanalida ko‘rsatuvlar soni biroz kam, asosan filmlar va seriallar efir vaqtini egallagan. 13-yanvar kuni “Bunchalar zo‘rsan”, “Oshga marhamat”, “Otalar so‘zi”, “Millar postda”, “Hindi shou”, “O‘tkir tergov” kabi teleko‘rsatuvlar namoyish etilgan bo‘lsa, 14-yanvar kuni “Bunchalar zo‘rsan”, “O‘tkir tergov”, “Oshga marhamat”, “O‘zbekning so‘zi qiziq”, “M-kokteyl”, “Baxtlimiz”, “Ikkalamiz”, “Gulkaram” kabi ko‘rsatuvlar telekanalning kunlik dasturidan o‘rin olgan. Dasturlarda Vatan himoyachilari kunining shukuhi sezilmadi.

Telekanal dasturidan “Otalar so‘zi”, “Iqror”, “Alhazar” kabi turkum telenovellalar o‘rin olgan bo‘lib, “Otalar so‘zi”da nisbatan toshi og‘irroq mavzular olib chiqiladi. “Iqror”da esa biroz maishiy-ijtimoiy, bo‘rttirilgan, hayot mantig‘iga to‘g‘ri kelmaydigan mavzular yetakchilik qiladi.

Afsuski, “Milliy” telekanali ham o‘z nomiga yarasha to‘laligicha milliy emas. Ona tiliga hurmat, ma’naviy qadriyatlar, tarbiya, axloq va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga hissa qo‘shadigan biror ko‘rsatuvni alohida e’tirof etish mushkul.

“Kinoteatr” telekanalining bayram kunlaridagi dasturlarini ko‘rish davomida ba’zi mulohazalar tug‘ildi. Ikki kunlik dasturlar davomida vatanparvarlik, yurt himoyasi, tinchlikni asrash kabi mavzulardagi kinofilmlar deyarli efir yuzini ko‘rmadi. Faqat 14-yanvar kuni “Sizga maktub” nomli vatanparvarlik ruhidagi milliy film efirga uzatildi. Lekin shu birgina film ham tonggi soat 06.20 da namoyish etildi. Yurtimiz hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Vatan himoyachilari kunida vatanparvarlik haqida birgina milliy filmning aksariyat yurtdoshlarimiz uyquda payti efirga berilishini qanday tushunish mumkin. 14-yanvar kuni “Renessans TV” tomonidan “101-reys”, “Tubanlik”, “Dasturxon TV” tomonidan esa “Tinchlik ortida”, “Vatan ostonasi”, “Afv”, “Baron” kabi vatan himoyasi mavzusidagi milliy filmlarimiz tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi. Nodavlat kanallar vatanparvarlik mavzusiga shunchalik e’tibor qaratayotgan bir paytda davlat kanali bo‘lgan “Kinoteatr”ning bu borada sustkashligi tushunarsiz holat.

Ikki soat uzluksiz efirga uzatilgan taqinchoqlar reklamasi – “Zargarshop” dasturidan zerikkan tomoshabinga reklama tugashi bilan yana soatlab davom etadigan hind kinosi o‘rniga vatan himoyachilari haqidagi birorta film namoyish qilinsa, adolatdan bo‘lar edi. Lekin bunday bo‘lmadi.

Albatta, bugun xorij kinosiga tomoshabinlar orasida qiziqish katta ekani bor gap. Ular ko‘proq auditoriyani o‘ziga jalb qila oladi. Lekin bayram munosabati bilan milliy bo‘lmasa-da, jahon kinosining vatanparvarlik, vatan himoyasi haqidagi tan olingan mashhur filmlarini ham namoyish etish mumkin edi. Misol uchun, amerikalik mashhur aktyor Mel Gibson ijrosidagi “Sheryurak”, “Vatanparvar” kinofilmlari qaysi millat vakili bo‘lsin, insonda vatanga bo‘lgan hurmat, vatanparvarlik tuyg‘ularini alanga oldira oladi.

Dam olish kunlari bolalar ertalabdan “Bolajon” yoki “Aqlvoy” telekanallarini tomosha qiladi. Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan dasturlar efirga uzatiladi deb, biz ham ularga hamroh bo‘ldik.

“Men harbiy bo‘laman” deb nomlangan 10 daqiqali harbiylar mashg‘ulotiga bag‘ishlangan dastur efirga uzatildi. Shu orada, boshqa dasturga o‘tish chog‘ida Galavit, Fluimutsil dori vositalari, dudlangan go‘sht mahsulotlari-yu, har besh daqiqada 3 martadan takrorlanadigan “ZIZI” saqich reklamalari bolalar jo‘rligida ketma-ket jaranglayverdi.

“Aqlvoy” kanali ijodkorlari “Oh, bu bolakaylar”, “Teo va Leo”, “Ajabtovur kashfiyot” hamda “Fiksiklar” kabi multiklardan nariga o‘tmaganini ko‘rib o‘ylanib qoldim. O‘zbekistonda yilda bir marotaba bo‘ladigan bayramda bolalarda vatanga muhabbatni tuyg‘usini uyg‘otishga qaratiladigan dasturlarni ko‘rganimizda shu vatanda istiqomat qiluvchi oddiy tomoshabin sifatida bolalarning “Malika Emma”dan ko‘ra mard To‘maris yoki Oybarchin haqida ma’lumotga ega bo‘lishi hamda tasavvuri shakllanishi ma’qul emasmi, deb o‘ylab qoldik. Chunki bolalarimiz televizor tomosha qilganida ana “Shrek” deyishini emas, balki mana bu “Shiroq” deyishini istardik. Bu bolalar ma’naviy xavfsizligi uchun juda muhim omildir.

E’tiborimizni “Kunfu jangchisi” multfilmi tortdi. Sababi, ushbu multfilmda xitoy jang san’ati, madaniyati, milliy qadriyatlari, obidalari aks ettirilgan bo‘lib, ular bolalarimda xitoy madaniyati haqida tasavvurlarni shakllantirayotganiga guvoh bo‘ldim. Shu multiklarga o‘xshab bizning ham farzandimiz o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatani, milliy o‘zligi, milliy qadriyatlari va madaniyati to‘g‘risida ma’lumotlar va taassurotlar bilan kamol topishini istardik. Bu O‘zbekistonning ertangi kuni uchun hayot-mamot masalasidir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, biz hozirdan bolalar qalbida ona-Vatanga muhabbat, Vatan oldidagi burch, mas’uliyat va sadoqat tuyg‘usini tarbiyalashni bir qarashda oddiy tuyulgan narsalardan boshlashimiz lozim. Bejiz Vatan onaga qiyoslanmaydi. Bizning Vatanda qanchalik haqqimiz bo‘lsa, Vatanning ham bizda shunchalik haqqi borligini bolalar qalbiga joylash shartligini unutishga, bir zum ham xotirjamlikka berilishga haqqimiz yo‘q. Shunday ekan, oynai jahon orqali nima berayotganimizga e’tiborsiz va loqayd qarash ertangi kunimizni boy berish bilan barobardir.

Avazbek SHERMATOV,
Nigora HUSANOVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimlari

TAHDIDLARDAN OGOH BO‘L, ODAMZOT!

Бошланиши 1-саҳифада

Davlatimiz rahbari tomonidan o‘rtaga tashlangan Yangi O‘zbekiston milliy g‘oyasi va Uchinchi Renessans poydevorini qurish kabi ulug‘ maqsadning amalga oshishi har jihatdan o‘sib kelayotgan yosh avlodda milliy qadriyatlarni ulug‘lash, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi insoniy fazilatlar yuqori bo‘lishini taqozo qilib turgan bir davrda bunday illatlarning paydo bo‘lishi kelajagimiz uchun jiddiy xavfdir. Ikkinchi tomondan, kuchayib borayotgan Yangi O‘zbekistonning shaxdam qadamlaridan cho‘chigan ayrim o‘zini osmonga ustun hisoblaguvchi davlatlarning g‘arazli “katta o‘yin”lari, buzg‘unchilik niyatida chetdan otilayotgan toshlar barchamizni ham bezovta qilishi tabiiy.

OGOHLIK BONGI

O‘zbekiston hududi qadimdan buyuk sivilizatsiyalar chorrahasida joylashganligi sabab muntazam ravishda qudratli davlatlarning ko‘zini o‘ynatib kelgan. Bu mintaqa miloddan boshlab Turon deb ataldi, arablar Movarounnahr deb o‘zgartirdi. Mo‘g‘ullar Chig‘atoy yurti deya nomladilar, Amir Temur Turon nomini qayta tikladi. XVI asrdan so‘ng Turkiston, chor istilosi davrida ham yurtimiz Turkistonligicha qoldi. Sovet davrida O‘zbekiston deb ataldi. E’tibor bersangiz har bir nom beruvchi o‘z siyosiy manfaat va qarashlaridan kelib chiqib jug‘rofiy atamani qonuniylashtirgan va asoslashga harakat qilgan. “Shohnoma”da tasvirlangan Turon va Eron raqobati har ikkala sivilizatsiyaning o‘z buyukligiga bo‘lgan da’vosini anglatadi. Shuning uchun ham bobomiz Amir Temur o‘z tuzuklarida arablar va mo‘g‘ullar nomlagan atamadan voz kechgan va qadim buyuk tariximizga qaytaruvchi Turon nomini tiklagan. Chor istilochilari va ularning qarashlarini o‘ziga dasturilamal qilgan kommunistik tuzum dohiylari Turonzamin xalqlari madaniyati, yuksak sivilizatsiyasi tarixini yaxshi biluvchi olimlar yordamida xalqimizning tarixini soxtalashtirish, oxirgi asrlarda yurtimizda kechgan siyosiy boshboshdoqlik, xonliklarga bo‘linish va davomli ravishda olib borilgan o‘zaro birodarkush urushlarining natijasida ma’rifatsizlikka yuz tutgan tub aholining ayanchli hayotini dastlab “sayohatchi”larning kundaliklarida, so‘ngra sharqshunos olimlarning asarlarida “ko‘z-ko‘z” qilish orqali dunyo sahnasida o‘zlarini yurtimizga madaniyat olib kirgan va bizlarni “odam” qilgan bir “saxovatpesha” qilib ko‘rsatdilar. Sovet tuzumining butun bir 70 yillik “ulug‘ og‘achilik” siyosati yurtimizda milliy uyg‘onishga sabab bo‘ladigan har qanday holatning oldini olish, kerak bo‘lsa, shafqatsizlarcha qatli om qilishga qaratildi. Nega bunchalik bizga e’tibor? Chunki bu yurt azaldan Markaziy Osiyoning yuragi, unda G‘arb va Sharqning qon tomirlari payvand bo‘lib ketgan, ilm-fan, savdo-sotiq rivojlangan, madaniyat atrofdagi o‘lkalarga nisbatan yuqori bo‘lgan. Buyuk Ipak Yo‘lining mazkur chorrahasida yashab qolgan dunyoning uddaburon savdogarlari, siyosatdon va zukko donishmandlari hamda olimlar-u ma’rifatparvar valiy zotlarning qoni bilagimizda oqmoqda. Istilochilar ana shu qonning bir kunmas, bir kun junbishga kelishidan, xalqning uyg‘onishidan xavotirlanishgan. Bu uyg‘onish ularning siyosiy-iqtisodiy va barcha qolgan sohalardagi manfaatlari ildiziga bolta urishidan cho‘chiganlar. Bu xavotirlar mamlakatimiz mustaqillikka erishish ostonasida turganda g‘azab va intiqomga aylandi. Tarixda “paxta ishi” nomi ostida amalga oshirilgan qatag‘on, 1989-yil Farg‘ona fojialari, so‘ng Guliston, Bo‘ka, O‘sh, Namangan voqealari bularning barisi eski istilochilarning yangi avlodlari bo‘lmish SSSR davlatining so‘nggi yillarida faoliyat ko‘rsatgan bir guruh imperiyaparast kuchlar tomonidan amalga oshirilgan “siyosiy o‘yinlar” edi. Tuzumlar o‘zgaraveradi, rahbarlar kelib ketaveradi, ammo “o‘yinlar” yashayverar ekan. Bu o‘yinlarning yetmish ming shaytonning xayoliga kelmaydigan variantlari borligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Bugun O‘zbekiston davlatining olamshumul tarixiy harakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning istiqboliga chet el ekspertlarining berayotgan chuqur tahliliy xulosalari jahonda havas bilan birga hasad uyg‘otmoqda. Hatto ayrim bizga do‘st davlatlarning ham rashki kelayotgandek go‘yo. Ular har tomondan imkon bo‘lsa bizning shashtimizni tushirishga harakat qilayotgani seziladi.

Prezidentimiz aytganidek: “Ilgari o‘z manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz”. Bu so‘zlarni minbardan turib ochiq aytish qanchalik jasorat talab qilishini tasavvur qila olamizmi? Prezident Shavkat Mirziyov tashqi siyosatdagi faoliyatida kuzatayotganimiz o‘ta donolik va chuqur mulohaza bilan olib borayotgan muzokaralar va munosabatlarni iliqlashtirishga qaratilgan harakatlari haqida ikki og‘iz so‘z. Masalan, 2017-yilgacha qo‘shnilarimiz bilan munosabatlarimiz qanday edi? Agar ular bilan yaqin qo‘shnichilik aloqalarini o‘rnatmaganimizda, o‘rtada yillar davomida keskin murosasizlikka sabab bo‘lgan chegara muammolari hal etilmaganida va “ochiq eshiklar” siyosati yurgizilmaganida bugun bizning “esimizni kiritib qo‘yish” uchun qudratli kuchlar tomonidan qanday nayranglar ishga solingan bo‘lardi, tasavvur qilish qiyin. Ularning “gij-gij”lash siyosati o‘ta puxta niqoblanadi, kulib turib orqangga pichoq sanchishi ularga odat. Albatta, yon qo‘shnilarimiz bilan to‘qnashuv chiqarib urush olovini yoqishlari hech gap emasdi. Bugun ham bu kabi “fikr-xayollar” bo‘lishi mumkin. Bor shekilliki, oxirgi paytlarda shamoli sezilmoqda. Bir kun janjal chiqqan joydan qirq kun baraka ketadi, degan gap bor. Bordi-yu, xudo ko‘rsatmasin, bir kor-hol ro‘y beradigan bo‘lsa, fojia boshlanadi, ulug‘ maqsadlarimiz ro‘yoga aylanadi. Prezidentimiz xalqning tinchligi va osuda hayotini ta’minlash uchun dunyodagi kuch markazlari, uzoq-yaqindagi davlatlar bilan oqilona murosai madora siyosatini olib bormoqda. Sal o‘ylanmay tashlangan qadam o‘lkamiz uchun dahshatli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Buning ustiga ezgu harakatlarimizni ko‘ra turib, bilmaslikka olishga uringan, o‘zini o‘zbek xalqi fidoyisi ko‘rsatib xalqimizni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga, norozilik uchqunlarini chiqarishga harakat qilayotgan ayrim millatdoshlarimizning urinishlari dard ustiga chipqon bo‘lmoqda. Yomonni ko‘rmaguncha, yaxshining qadriga yetmaydi, deydilar. Ilohim yomon kunlarni ko‘rmaylik! Ey, odamlar! Bugunning qadriga yetmoq, shukr qilmoq kerak, deya hayqirgim keladi.

MILLIY VAKSINA KERAK!

Mustaqillikning ilk davrlarida “mafkura” atamasini ishlatmaslik qat’iy qoidaga aylangan edi. Chunki u davrlarda bu so‘z sovet tuzumi qarashlari majmuasi va kommunistik partiya siyosati ifodasi sifatida salbiy tus kasb etgan edi. Ammo har qanday yangi davlat va jamiyatning milliy mafkurasi biror-bir g‘oya asosida shakllanishi, bu – qonuniyat. Mafkura asosini muayyan davlat va jamiyatning maqsad va intilishlari, ularni amalga oshirish strategiyasini belgilovchi yagona yoki g‘oyalar tizimi tashkil etib, ijtimoiy guruhlarni bir bayroq ostida birlashtiradi. 2017-yilgacha milliy istiqlol g‘oyasi o‘z davrini yashab bo‘ldi. Xalqimiz qaramlik kishanlaridan qutulib, kommunistik tuzum va uning dohiylarini unutdi. 2017-yildan mamlakatimiz o‘z taraqqiyot bosqichining yangi davriga qadam qo‘ydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” milliy g‘oyasini ilgari surdi. Bu g‘oya davlatimiz va xalqimizni jahonda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi, qadim tariximizda bo‘lganidek, dunyo xalqlari orasida o‘z munosib o‘rnini egallashi, ilm-fan taraqqiy etgan va xalqi farovon davlat qurish haqidagi azaliy orzu-umidlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan, milliy manfaatlarni ustuvor bilib, ezgu maqsadlar yo‘lida birlashtiradigan va safarbar etadigan g‘oyadir. Bu g‘oyaning pirovard maqsadi xalqimiz taraqqiyotida Buyuk uyg‘onish – Uchinchi Renessans davrini boshlab berishdir.

“Millatlarni qirq to‘qquzga bo‘lib, o‘zboshimchaliq ko‘yiga soldingiz va dard desa kuydirgi aytadigan qildingiz”, deyarlar. Ushbu burchak ittihodchilarig‘a bizning beradirgan javobimiz bir: “Biz haqiqatni hayotdan oldiq. Hammadan ilgari shaxs o‘zini tanisin, so‘ngra boshqani! Zero, “O‘zini bilmagan o‘zgani bilmas”, so‘zi turmush onasining dard chekib tuqqan to‘ng‘ich o‘g‘lidir.

Abdulla QODIRIY

“Biz bugungi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar”. Ushbu iqtibos Prezidentimizning o‘tgan yil adog‘i, 22-dekabr kuni o‘tkazilgan ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqidan. Davlatimiz rahbarining kuyunishiga jiddiy asoslar bor. Telefon degan baloyi azim 3 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan bolalar-u qariya buvijonlarimizni ohanrabodek o‘ziga yopishtirib qo‘ydi. Yosh onalar bolalariga ovunchoq topilganidan xursand. Kattalarga g‘iybat, yoshlarga axloqsiz tomoshalar. Ayniqsa, yoshlarimizning ma’naviy qash-shoqlashib borayotgani, kattalarning yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga befarqligi, diniy mutaassiblikning avj olayotgani hammamizni jiddiy tashvishga solmoqda. Davlatimiz rahbari Internet kanallaridagi axloqsizlikni targ‘ib etishga qaratilgan kontentning yoshlar ma’naviy tarbiyasiga jiddiy salbiy ta’siri oqibatlariga to‘xtalib, bu salbiy tendensiyaning oldini olishga chaqirdi. Zotan, – dedi Prezident. – Biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istasak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi!”

Mamlakatimiz ziyolilari, shoirlar-u adiblar, san’atkor-u kinochilar, olimlar-u pedagoglar, o‘zini millat fidoyisi sanaguvchi barcha uyg‘oq qalblar birlashib, yoshlarimizda milliy g‘urur va umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga ehtirom tuyg‘ularini kuchaytirish, begona g‘oya va mafkuralar ta’siriga tushib qolmasligi uchun kurash e’lon qilishi kerak. Davlatimiz rahbari nutqida ilm-fan, tarbiya va ma’naviyatga e’tiborni kuchaytirish davlat va ziyolilarimizning ustuvor vazifasi bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi. Ayniqsa, Prezidentimizning “Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan – jaholat ham, ma’naviy tahdidlar ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi – yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir. Tinch va farovon hayot qurish uchun, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo‘lishi zarur”, degan gaplari har bir millat fidoyisi uchun ma’naviy tahdidlarga qarshi hayot-mamot kurashiga chaqiriq bo‘lib yangradi.

YANGI UYG‘ONISH DAVRINING TO‘RT TAYANCH USTUNI

Milliy vaksina jamiyat vujudiga suqilib kirayotgan begona g‘oyalar ta’siriga tushmaslikning oldini olish uchun ham juda zarur. U mafkuraviy immunitetni kuchaytiradi. Shunday ekan, milliy vaksina tarkibiy qismlarini nima tashkil etadi? Bularga, inson dunyoqarashida sog‘lom tafakkur va estetik didni shakllantiruvchi barcha bilimlar, jumladan, badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr, musiqa, tasviriy va amaliy san’at, matbuot nashrlari kiradi. Davlatimiz rahbari yoshlar tarbiyasiga bevosita mas’ul bo‘lgan oila, bog‘cha tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilari va oliy ta’lim dargohlari pedagoglariga Yangi uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni deya katta umid bilan qaraydi. Darhaqiqat ayni shu insonlar birinchi navbatda o‘sib kelayotgan yosh avlodda Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini, millatparvarlik, milliy qadriyatlarga ehtirom va yuksak axloqiy fazilatlarni singdiradilar. Ular obrazli qilib aytganda, milliy vaksinani yuboruvchi shifokorlardir. Vaksinani tayyorlab beruvchilar sirasiga shoirlar va adiblar, olimlar, san’atkorlar, kinochilar va ko‘plab nomi tilga olinmagan ma’naviyat va madaniyat sohasi vakillari, millat fidoyilari kiradi. Tasavvur qiling, butun jamiyat shu ishda bir jon, bir tan bo‘lsa, qanday ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. Davlatimiz rahbari ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish yo‘llari haqida gapirar ekan, bolalar bog‘chadan boshlab to maktabdan uchirma bo‘lguncha yoshlarni ta’lim dargohlarida va o‘qishdan tashqari vaqtlarida ham mukammal tarbiya olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish haqida zarur ko‘rsatmalar berdi. Murg‘ak qalblarda Vatan, davlat va uning ramzlariga ehtiromni shakllantirish, zamonaviy ertaklar yaratish va ularni sahnalashtirish orqali ezgu fazilatlarni shakllantirish, maktabda dunyoviy davlat tushunchalarini singdirish, bolalarbop ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yozish, turli ilmiy-ijodiy, tasviriy va amaliy san’at hamda musiqa to‘garaklariga jalb etish orqali ularda milliy qadriyatlarimizga muhabbat uyg‘otish, milliy g‘ururning ortishiga sabab bo‘luvchi milliy teleseriallar yaratish, muzeylar va kutubxonalarga sayohatlar uyushtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish shu jumladandir. Shuningdek, o‘zga tilli maktablarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishni talab darajasiga ko‘tarish bolalarni o‘zligidan uzoqlashmasligi va g‘arb madaniyati ta’siridan saqlab qolishning muhim sharti ekani ta’kidlandi.

Bugun barcha ziyolilarimiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan har bir vatandoshimiz atrof-tevaragimizda ro‘y berayotgan voqealar mohiyatini chuqur anglab, Vatan obodligi va taraqqiyoti, xalqimizning tinchligi va osuda hayotini ta’minlash bevosita o‘ziga ham bog‘liq ekanini, dunyoviy davlat taraqqiyot garovi ekanini bilishi, yoshlarimiz ma’naviyatini begona g‘oyalar ta’siridan saqlash va milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etish uchun bor salohiyati hamda tajribasini safarbar etmoqni o‘z muqaddas burchi deb bilishi lozim.



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

ZARDA

ECHKUNI OTI ABDUKARIM BO‘LDIMU?

Echkuni oti Mulla Abdukarim bo‘lurg‘a hanuz vaqt bor erdi-ku? Burung‘ilar aning uchun “Ebi bilan kulganni qurboni bo‘l”, degan ekanlar. Emdi hozirgilar burung‘ilarning bu gapini o‘zlariga “Qo‘lingdan kelganini qilib qandingni ur” deb moslab olmadilarmi?

Nega muncha asab deysanmi, Abdusattor? E, ko‘rmaysanmi, emdi boshdin oyoq, oyoqdin bosh chiqar fursatg‘a yetganda hadeb dilbuzir ko‘ravermay ma’nili odam bo‘lay deb “Milliy tiklanish” gazetini shundoq ochib qarasam, “Bahriddin Chustiy ham jadidlar ro‘yxatida” degan bir maqola bor ekan. Bahriddin Chustiy ham o‘ttizinchi yillarda otilgan millatparvar ekan-da, deb o‘qiy boshlasam... E, u kapkirini o‘ynatib yurgan oshpaz ekan! Oshpaz! “Vay!” degancha kalovlanib qoldim.

Kalvak Maxzum va Toshpo‘lod tajanglarning nabiralari tunov kun “emdigi zamonada ayrim gazetlardan tuturiq ketgan, og‘ziga kelganini yozadir” deganida ulardan domangir bo‘lg‘on erdim. Vodarig‘ki, ular rost so‘ylagan ekanlar, aks holda Bahriddin Chustiy degan kapkir o‘ynatgan mardum qayda-yu, “Milliy tiklanish” maqolasi boshida lutf etilganidek, “o‘z joni, hatto oila a’zolari halovatidan ham yurt istiqbolini baland qo‘ygan jadid bobolarimizning hayoti” qayda? Tarozi posangisi degan narsani ham bilmaydirg‘on chiqar bu bo‘yinbog‘ o‘rnida... Toshpo‘lod bobo aytg‘on matohni tamog‘i ostidan o‘tkazib olganlar.

Emdi ikki og‘iz nafsi ammora va g‘oya haqinda gapiradigan bo‘lsak, bizning jadid bobolarimiz non-u oshni, qorin g‘amida qilinadigan narsalarni emas, balki g‘oya va dasturlari bilan millat taraqqiyotiga xizmat qilishni bosh maqsad qilib qo‘yganlarini hatto Kalvak Maxzumga yo‘lda uchragan o‘quvchi qiz muallimasining avlodlari ham bugungi kunda yaxshi biladi. Boz ustiga, o‘qlog‘day-o‘qlog‘day harflar bilan bitilgan sarlavha ham hafsalangni pir qilmay qolmaydi, nima emish, “Bahriddin Chustiy



ham jadidlar ro‘yxatida” emish. Bu ro‘yxatni kim tuzdi? Aytinglar, uch-to‘rt tanga qistirib bo‘lsayam kirib olaylik. Avvallari “o‘laman sattor, jadidga aloqam yo‘q” deganlar emdi “otingni sot, molingni sot, jadidlar ro‘yxatiga kir” deb yurishganmish.

Shaxsan manim Baxriddin Chustiy degan inimizga zarra xusumatim yo‘q. Oshini pishirib, kabobini kuydirib, totli taom ishqibozlarining olqishini olib, qandini urib yuraversin. Lokigin oshqozon g‘amining jadidchilikka ne aloqasi bor? Boyaqish jadidlar tirikligida ikki daryo orasinda yashaydirg‘on mardumning oshxo‘rlig-u to‘yparastlikka ruju qo‘yib, zamona ilmlaridan ortda qolgani haqinda kuyunib, gazitlarda maqola bitib, teatruda tragediyaliq tamosholar qo‘yg‘an edi. Jonini jabborga berib, shu millat g‘ami, yurt ozodligi yo‘lida “bir mo‘ylov istagi” bilan qatag‘on etilgan bobolarimizning “jadid” nomi emdi trendga chiqib qoldimi? Nima, oshpaz kirgan ro‘yxatga qassob, soliqchi, bankir, qozi, to‘ra, amaldor ham kirsa asakasi keturmi? Ayt, vznosi bo‘lsa, to‘lab boraylig-u, biz ham chetda qolmaylik.

Hay, darig‘! Yoqo ushlab “tavba” deyishdan ortiq ne chorang bor...

OVSAR
(jadidlikka nomzod)

MOZIYGA QARAB...

“KISHI O‘RGANIB, SO‘NG DONO BO‘LUR...”

Boshlanishi 1-sahifada


“XI–XV asrning turkiy yozuvidagi yodgorliklar“ ilk marta uyg‘ur yozuvidagi adabiy meros namunalarini o‘zbek kitobxoniga tanishtirgan yaxlit asar sifatida e’tiborga molik. Unda “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “O‘g‘uznoma”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, shuningdek, Lutfiy, Sakkokiy, Qambar o‘g‘li, Javhariy, Qosim singari adiblarning g‘azallaridan namunalar keltirilgan. Matnlarning transkripsiyada berilgani, asl matn qo‘lyozmasi namunalarining ilova qilingani ularning ilmiy qimmatini oshirgan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek tilidagi tabdillar kitobni keng omma uchun ham manzur etgan omildir.

Q.Sodiqovning ayrim tadqiqotlari uning manbashunos va matnshunos olim sifatidagi fazilatlarini ochiq ko‘rsatib berishi bilan e’tiborga molik. Xususan, “Uyg‘ur yozuvi tarixi (manbashunoslik va kitobat tarixi masalalari)”, “Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar”, “Ko‘k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini”, “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvli Hirot nusxasi“ bu jihatdan ajralib turadi. Ularda muallif manbaning asl mohiyatini uning asosiy mazmuni, yetakchi xususiyatlari, ijtimoiy, tarixiy, ilmiy hamda adabiy o‘ziga xosliklarini juda aniq va lo‘nda ifodalarda ko‘rsatishga harakat qilgan. E’tibor berilsa, bugun faqat o‘zimizda emas, xorijdagi ko‘plab tadqiqotlarda ham bu asarlarga murojaat etishadi. Mana shu faktning o‘ziyoq mazkur tadqiqotlarning teranligi va ahamiyatini tasavvur qilishga imkon beradi.

Qosimjon qiziqish doirasi ancha keng olimlar sirasidan. Uning falsafa va din tarixi (“Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari”, “Sharq falsafasi”, “Qadimgi turk falsafasi”, “Oltin O‘rda va temuriylar davrida yaratilgan turkiy yorliqlar: tarixiy-filologik talqin”, “Ilk va o‘rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar”) yo‘nalishlaridagi kuzatish va to‘xtamlari fikrimizni tasdiqlaydi.

Ta’kidlash joizki, bunday kuzatishlar olimning milliy til tarixi va uning rivojiga oid qarashlari falsafiy-metodologik asoslarining quvvat olishi uchun ham munosib omil bo‘lgan.

Albatta, bu yo‘nalishda ham uning qadimgi turkiy obidalarning lisoniy jihatlari tadqiqi va tahliliga oid faoliyati ustuvorlik qiladi. U adabiy til tarixida kechgan o‘ziga xos lisoniy qonuniyat va jarayonlar mohiyatini asosli tarzda ko‘rsatib beradi (“Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi”), ularning matnga bog‘liq bo‘lgan mazmun xususiyatlari, ijtimoiy hamda adabiy-estetik baholarini muayyanlashtiradi (“Eski turkiy bitiglar”, “Ko‘k turk bitiglar”i va ularning talqini. Mangu bitiglar, ularning hozirgi



adabiy tilimiz tarixida o‘rni va ahamiyatini aniqlaydi.

Mazkur tadqiqotlardagi asosiy fazilat lisoniy hodisalar mohiyatini zamonaviy tilshunoslikdagi mavjud yondashuvlarga xos me’yor va mezonlar bilan tahlil etishda namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan olimning tavsiflashdan boshlab tipologik, oppozitsion (zidlash), komponent tahlil, rekonstruksiya, mantiqiy qiyoslash, muxtasar qilib aytganda, kompleks yondashuvlardan foydalanishi ish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani ko‘rinib turibdi.

Olimning fan tarixi, fan yutuqlarini ommalashtirish borasidagi faoliyati ham rang-barang. Bu jabhada yana qadimgi manbalar, ularning mazmun va mohiyati ulardagi yetakchi qonuniyat va tendensiyalar mohiyatini ko‘rsatish, yangi fakt va materiallarni ilmiy muomalaga kiritish, shu sohadagi mutaxassislar faoliyatini tavsiflash yetakchilik qiladi.


O‘zbek turkiyshunoslik fanini xorijiy olimlar nigohiga yetkazishda ham Q.Sodiqov salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Uning Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, Janubiy Koreya, Mo‘g‘uliston, Ozarbayjon, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qirg‘iziston, Qozog‘iston mamlakatlarida tashkil etilgan xalqaro anjumanlardagi ma’ruzalari buning yorqin misolidir.

U oliy o‘quv yurtlarining bir qator bakalavriat yo‘nalishlari hamda magistratura bosqichi uchun o‘quv dasturlari, qo‘llanmalar (“O‘zbek adabiy tili tarixidan (universitetlarning filologiya fakultetlari uchun qo‘llanma), “Qadimgi turkiy yozuvlar“ va “Qadimgi turkiy til“ fanlaridan dars matnlari, “Til tarixi: Ilk o‘rta asrlarda turkiy dunyoda kechgan lingvo-madaniy jarayonlar”, “Til tarixi: Ilk o‘rta asrlarda turkiy dunyoda kechgan lingvo-madaniy jarayonlar”, “O‘zbek mumtoz adabiyoti”) yaratdi.

Ta’kidlash joizki, ularning asosiy qismi ilk marta dunyo yuzini ko‘rgan. Bu sohaning ancha qiyin va murakkabligi bunday og‘ir va mashaqqatli yumushlarni o‘z zimmasiga ola biladigan mutaxassis ustozlarning kamligi bilan izohlanadi.

Q.Sodiqov o‘qituvchi sifatida alohida ta’rif va tavsiflarga munosib. Buni unga talabalarning munosabatidan ochiq ko‘rish mumkin. O‘qituvchining bilgani boshqa, ammo bilganlarini boshqalarga yetkazish tamomila boshqa narsa ekanini mutaxassilar yaxshi bilishadi. Qosimjonning pedagogik mahorati bir umrlik tajribalarning munosib natijasi sifatida jamlangan. U faoliyatini umumiy o‘rta ta’lim maktabida boshlagani uchun ham bolalar psixologiyasini yaxshi biladi. Oliy ta’lim va undan keyingi ta’lim jarayonlarida ko‘p yillardan buyon mashg‘ulotlar olib borishi esa, katta yoshdagilar ruhiyatini ham atroflicha o‘rganish imkonini bergan. Hozirgacha u o‘zi faoliyat yuritib kelayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalari, izlanuvchilari hamda doktorantlari davrasida qizg‘in pedagogik jarayonlar ichida mashg‘ul.

Ko‘p yillik o‘qib-o‘rganishlar Qosimjonda har qanday olimning havasini keltiradigan darajada keng va mustahkam bilim zahiralari, ularni boshqalarga yetkazishning shakl va usullaridagi rang-baranglik juda munosib tarzda mujassamlashgan. Uning fikr bayonida mayinlik, muntazam va mustahkam mantiq, fakt va materiallarning



zich va tig‘izligi, o‘ziga bo‘lgan ishonch har doim sezilib turadi. Taqdirning inoyati meni mamlakatimizning ayrim o‘quv muassasalarida, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasidagi oliy ta’limning doktorant va ilmiy tadqiqotchilarga Q.Sodiqov bilan birga dars o‘tishga musharraf qilgan edi. Mana, shunday darslar jarayonida, shuningdek, uzoq yillardan beri bir soha va yo‘nalishda, bir tashkilotda ishlab kelganim uchun undagi aql-u zakovat, pedagogik takt va mahoratning yuksak parvozlarini ko‘p marta kuzatishga muyassar bo‘lganman.

Qadimgi davr manbalari va materiallari bilan shug‘ullangan mutaxassislar o‘sha davrlar manbalarining til xususiyatlari, so‘zlar ma’nosidagi o‘ziga xosliklarni to‘la va to‘g‘ri anglash muammosiga duch kelishi tayin. Shunday qiyinchiliklarni o‘z boshidan kechirgan olim o‘zi nashr qilgan manba va materiallarga oid maqola va kitoblarida har doim ko‘plab lug‘at va izohlarni ilova qilib keladi. U yaratgan “Ilk va o‘rta asrlar turkiy matnlari nomlarining izohli lug‘ati”, “Qutadg‘u bilig“ so‘zligi“ talabalar uchun ham, mutaxassislar uchun ham ayni muddao bo‘ldi.

Olimning asosiy faoliyat yo‘nalishining qaymog‘i uning qadimiy manbalar matnlarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish, shuningdek, ularning ilmiy, akademik nashrlarini tayyorlashda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit-turk“ asarining yangi nashri (Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017) bu yuksaklikning oliy cho‘qqisi, deyish mumkin. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq“ asarining yangi transkripsiya, tabdil va izohlar bilan talqin etilishi esa, mumtoz adabiyot namunalarini nashr etishda bu jabhada uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashiqli bo‘ldi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning yangi nashri esa (Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. “Akademnashr”, 2017) mazmun va mohiyatiga ko‘ra bugungi navoiyshunoslikka munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

“Devon-u lug‘otit-turk“ qadimiyat bilan aloqador bo‘lgan ko‘plab tushuncha va so‘zlarning qomusiy lug‘ati. Mahmud Koshg‘ariy “Devon-u lug‘otit-turk”da “alp“ so‘zining izohi uchun qadimiy bir maqolni keltiradi: Alp yag‘ida, alchaq jag‘ida. Maqoldagi oxirgi so‘z arab yozuvida boshqacharoq ko‘rsatilgan, uning transkripsiyasida esa boshqa shakl berilgan.

Mana shu ayirma Q.Sodiqov tomonidan e’tiborga olingan. U asliyat(qo‘lyozma)dagi shaklga diqqat qaratib, uning “čoğïda”“shaklini tiklagan. Natijada maqolning tarixiy shakli bilan bog‘liq haqiqat (“Alp yag‘ida, alchaq jo‘g‘ida“ – “Botir dushman bilan to‘qnashganda, yuvosh tirishishda sinaladi”) qaror topgan.

Qosimjonning ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasidagi ustozlik maqomi ham shoyoni tahsindir. Uning shogirdlari bugun respublikamizning turli oliy o‘quv yurtlarida, mehnat jamoalarida faoliyat yuritishmoqda. Ularning safini xorijlik shogirdlar, chet ellarda faoliyat yuritayotgan ko‘p sonli mutaxassislar ham to‘ldirib turibdi.

Filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Qosimjon Sodiqov inson sifatida ham ko‘pchilikka o‘rnak va namuna.

Zero, Yusuf Xos Hojib aytganlaridek:

Kishi o‘granib o‘tru bilga bo‘lur,
Bilig bilsa o‘tru qamug‘ ish unur.

Mazmuni:

Kishi o‘rganib, so‘ng dono bo‘ladi,
Bilim bilsa, so‘ng hamma ish unadi.

Boqijon TO‘XLIYEV,
filologiya fanlari doktori

PARLAMENT

DEPUTATLAR NIMA DEYDI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan bir qator muhim qonun loyihalari o‘rtaga tashlandi. Shuningdek, parlament nazorat-tahlil faoliyatiga oid masalalar ham ko‘rib chiqildi. Bu haqda Qonunchilik palatasi deputatlari o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Bahrom Rahmonaliyev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Majlisda tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonun loyihasining ikkinchi o‘qishdagi muhokamasi qizg‘in kechdi. Qonun loyihasida tadbirkorlik subyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tgan hududidan qat’i nazar ularning tovarlari, xizmatlari, mehnat resurslari va moliyaviy mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin harakatlanishining kafolatlanishi nazarda tutilmoqda.

Kiritilayotgan ushbu o‘zgartirishlar mamlakatda biznes muhitini yanada rivojlanitirishga, tovar va xizmatlar bozorining barcha ishtirokchilari uchun teng iqtisodiy-huquqiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilindi.

Jahongir Abdurasulov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Majlisda kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish, aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan qonun loyihasi uchinchi o‘qishda qabul qilindi.

Qayd etish kerak, ushbu hujjatning ahamiyatli jihatlari ko‘p. Jumladan, qonun loyihasi bilan Fuqarolik kodeksiga jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan mikroqarz yoki kredit berish bo‘yicha amalga oshirilgan to‘lov summasi agar qarz oluvchining majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarz majburiyatlarini mutanosib ravishda so‘ndirilishini nazarda tutuvchi tartib belgilanmoqda.

Shuningdek, mikroqarz berishning eng yuqori miqdorini ellik million so‘mdan yuz million so‘mgacha oshirish nazarda tutilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu hujjat qarz oluvchilar uchun qulay moliyaviy imkoniyatlar yaratadi, mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Navro‘z Yusupov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Atmosferaning ifloslanishi global ekologik muammolardan biri sanaladi. Ayni vaqtda mamlakatimiz uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Atmosfera havosining ifloslanishi sabab va oqibatlari, havoni muhofaza qilish usullarini atroflicha o‘rganish, mavjud muammolarni bartaraf etish eng muhim masalalaridandir.

Shundan kelib chiqib, yalpi majlisda deputatlar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri A.Abduhakimovning “Respublikada, shu jumladan Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to‘g‘risida”gi axborotini eshitish taklifini bildirishdi.

E’tiborlisi, mazkur taklif siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari rahbarlari hamda deputatlar tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlandi va tegishli qaror qabul qilindi. Bu masala parlamentning doimiy nazoratiga olindi.

Matbuot xizmati

QORAQALPOQ JADIDLARI SARBONI

O‘tgan asrning boshlarida Xiva Turkiston zaminida yuzaga kelgan jadidchilik harakatidan qoraqalpoq eli ham chetda qolgani yo‘q. Aslida bu xalqning uch ulkan shoiri – Kunxo‘ja Ibrohim o‘g‘li, Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li, Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li ijodi aynan xalq ozodligi, emin-erkin hayot, ma’naviy taraqqiyot g‘oyalari bilan sug‘orilgan.



Bu ulug‘vor adabiy merosdan bahramand bo‘lgan atoqli shoir, pedagog, dramaturg Seyfulg‘abit Majitov qoraqalpoq jadidlarining sarboni sifatida o‘rtaga chiqqan edi. Uning tavallud sanasi, tug‘ilgan joyi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ba’zi manbalarda 1965-yili Qo‘ng‘irot muzofotining Mashanko‘l o‘ramida tug‘ilgan deyilsa, ayrimlarida 1867-yili Qozon guberniyasining Arshan ovulida tavallud topib, 1875-yili otasi bilan Qo‘ng‘irotga ko‘chib kelgan deyiladi. Bu qaydlarning qaysi biri to‘g‘riligidan qat’i nazar, Seyfulg‘abit bu o‘lkada ma’rifat fidoyisi sifatida tanildi.

Berdaq, Avaz O‘tar, Abay, Abdulla To‘qay ijodiyoti bilan yaxshi tanish bo‘lgan Seyfulg‘abit Turkiston jadidlarining yetakchilari Ismoil G‘aspirali va Mahmudxo‘ja Behbudiy asos solgan jadid matbuoti namunalaridan bahramand bo‘lgan edi. U Qo‘ng‘irotda yangi usuldagi jadid maktabini ochadi va “Alifbe”, “O‘qish kitobi” qo‘llanmalarini yozadi. Qosim Avezov, Ko‘ptileu Nurmuhammedov kabi yosh jadidlar shu maktabda ta’lim oladilar. 1910-yili Qo‘ng‘irotga Turkiston jadidlaridan biri Muhammadsharif So‘fizoda keladi. Bungacha u Ozarbayjon, Turkiya, Arabiston va Hindistonda bo‘lgan edi. So‘fizoda Qo‘ng‘irotga Boku va Orenburgda chiqib turgan gazetalarni olib keladi. Seyfulg‘abit So‘fizoda bilan hamkorlikda Turkistonda chop etilgan gazetalarga maqolalar yozadi. So‘fizoda o‘sha paytlari gazeta haqida quyidagi otashin satrlarni bitgan edi:

Yashnatib dil g‘unchasin, fasli bahor aylar gazet,
Suv berib ko‘ngul bog‘ini sabzavor aylar gazet.
Sharqdan Mag‘ribgacha bo‘lg‘on havodisni yozib,
Ne go‘zal marg‘ub xabarlar oshkor aylar gazet.
Ko‘b o‘qur bo‘lsang, bo‘lursen el aro chun nuktadon,
So‘zlaganda so‘zlaringni beg‘ubor aylar gazet.

1913-yili Quyi Amudaryo vohasida misli ko‘rilmagan suv taqchilligi yuz berdi. Yer va suvning bahosi oltindan ham yuqori bo‘ldi. Shunday sharoitda Seyfulg‘abit Majitov quyidagi satrlarni bitgan:

Desanglar bo‘lmaylik nomardga muhtoj,
Yerni hayda, seni yering to‘ydirar.
Beparvolik etib mana, bo‘lding och,
Yerni hayda, seni yering to‘ydirar.
Dunyoda yashagan jonli jonivor,
Yerdan unganidan tiriklik qilar,
Taom, kiyim – bari shu yerdan unar,
Yerni hayda, seni yering to‘ydirar.
Yer bir xazinadur, olsang tugamas,
Olgan bilan ul xazina oz bo‘lmas,
Jonli, jonsiz barcha yersiz turolmas,
Yerni hayda, seni yering to‘ydirar.
Oltin, kumush bilan temir ham mislar,
Asli yerdan bo‘lar barcha turmushlar,
Yerdan to‘yar ko‘kda qanotli qushlar,
Yerni hayda, seni yering to‘ydirar.

O‘sha paytlar Qo‘ng‘irot Quyi Amudaryo vohasining shimoldagi darvozasi edi. Turkistonda yuz berayotgan barcha yangiliklar bu yerga yetib kelardi. 1914-yili Samarqand va Toshkentda teatr truppalarining tashkil topishi, “Padarkush” dramasining namoyishi Seyfulg‘abitning diliga cho‘g‘ soladi. U ayrim kuzatishlarini dramatik mashqlar tarzida daftarga tushiradi.

1921-yilning aprelida avval Xo‘jayliga, keyin Qo‘ng‘irotga ulug‘ ma’rifatparvar shoir, taniqli dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziy keladi. Bu paytda Seyfulg‘abit Qo‘ng‘irot tuman xalq maorifi bo‘limi mudiri edi. Hamza unga yangi maktablar ishini yo‘lga qo‘yishda ko‘maklashadi, dramalaridan parchalar o‘qib beradi. Bunday hamkorlik samarasi o‘laroq qoraqalpoq jadidi “Saboq”, “Yernazar Olako‘z” nomli pyesalarini yozadi. Qoraqalpog‘istonda “Tong nuri” teatr truppasi tuzilib, unga yosh yigit Jo‘lmirza Aymurzayev bilan Seyfulg‘abit Majitov yetakchilik qiladi. Navqiron dramaturg Abdurahmon O‘tepov truppa uchun pyesalar yozib beradi. Seyfulg‘abit Majitov “Birinchi odim”, ya’ni “Yerkin qoraqalpoq” gazetasining asoschilaridan biri, mas’ul kotib edi. Uning gazetada e’lon qilgan she’r, ballada, maqolalarida jadidchilik kayfiyati yaqqol sezilib turadi. 1935-yili Seyfulg‘abit “Bog‘dagul” nomli pyesasini yozadi, “Suyun va Sora” romanini yozishga kirishadi. Ammo VCHK, GPU 1919-yildan uning iziga tushadi. Uni Xon Maxsum boshchiligida ko‘tarilgan aksilinqilobiy qo‘zg‘olonning g‘oyaviy yo‘lboshchisi, deb bilishardi. Avval RKP(b) safidan chiqarishadi va Qipchoq tumaniga surgun qilishadi. Qo‘ng‘irot okrugi partiya tashkilotini boshqargan odam To‘rtko‘l o‘lkashunoslik muzeyida oddiy ishchi bo‘lib ishlaydi. 1937-yil sentabrida uni qamoqqa olishadi. Yetti oy davom etgan qiynoqlardan so‘ng, 1938-yilning 16-aprelida jasur qoraqalpoq jadidi turmada olamdan o‘tadi. Shu kuni atoqli davlat arbobi O‘roz Yermanov ham panjara ortida bandalikni bajo keltiradi. Ular bilan birga el ozodligi uchun kurashgan Olloyor Do‘snazarov, Qosim Avezov, Ko‘ptileu Nurmuhammedov, Menglixo‘ja Ibniyaminov ham shafqatsizlarcha otib tashlanadi.

Qoraqalpoq jadidlari sardori Seyfulg‘abit Majitovning asarlarini qayta nashr etish, dramalarini Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik teatrida qayta sahnalashtirish, Nukusda qoraqalpoq jadidchiligini o‘rganish ilmiy markazini, Qo‘ng‘irot tumanida uy-muzeyini tashkil etishni taklif qilamiz. Zero, ishlarning amalga oshishi qatag‘on qurboni bo‘lgan atoqli jadid bobomiz ruhini shod etadi, degan umiddamiz.

Yangiboy QO‘CHQOROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

BADIA

TURKISTON QAYG‘USI, DARDI

Har gal fidoyi olim va pedagog Boybo‘ta Do‘stqorayevni esga olganimda, “Zamindaу vazmin-u mehnatkash, mushfiq” degan misra beixtiyor xayolimga keladi. Nazarimda, atoqli shoirimiz G‘afur G‘ulomning xalqimiz ta’rifida bitgan bu shoh satri shu elning chin farzandi bo‘lgan Boybo‘ta akaga har jihatdan munosib — u kishi haqiqatan ham zamindaу vazmin, haqiqatan ham mehnatkash, mushfiq va kamsuqum inson edi...

Boybo‘ta akani birinchi marta 1973-yilning yoz oylarida, akam bilan Toshkent davlat universitetiga o‘qishga hujjat topshirish uchun kelganimda uchratganman.

Universitetning keng-mo‘l, uzun koridoriga qo‘yilgan qator stollardan birida o‘ttiz yoshlar chamasidagi yigit jurnalistika fakultetiga hujjat qabul qilayotgan ekan. Stoldagi peshlavhadan bu yosh o‘qituvchi fakultet qabul komissiyasining a’zosi Boybo‘ta Do‘stqorayev ekanini bilib oldik. Domla har bir hujjatni nihoyatda sinchkovlik bilan ko‘rib chiqar, o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi xatti-harakatlaridan yaqqol sezilib turar edi.

Navbat menga keldi. U kishi hujjatlarimni diqqat bilan ko‘zdan kechirar ekan, bir zum taraddudlanib qoldi. Goh pasportimga, goh attestatimga, so‘ngra yuzimga qaradi, keyin muloyimlik bilan dedi:

– Ukajon, pasportingizda tug‘ilgan joyingiz Ordjonikidze rayoni deb ko‘rsatilgan ekan, attestatingizda Parkent deb yozilibdi. Albatta, men ishonaman, bunda sizning aybingiz yo‘q, lekin hujjat – baribir hujjat-da, to‘g‘rilab kelmasangiz bo‘lmas...

Attestatni olayotgan vaqtda azbaroyi suyunganimdan e’tibor qilmagan ekanman, qarasam, haqiqatan ham tug‘ilgan qishlog‘im Parkent deb ko‘rsatilibdi. Holbuki, mening nasl-nasabim shu joydan bo‘lsa-da, 1956-yilning 19-yanvar kuni sobiq Ordjonikidze (hozirgi Qibray) tumanining Tuzil qishlog‘ida tug‘ilganman. Ota-onam iqtisodiy sharoiti nochor bo‘lgan Parkentdan ko‘chib kelib, shu yerdagi sovxoz, ya’ni davlat xo‘jaligida oddiy ishchi bo‘lib mehnat qilishgan.

Maktabda Xoliq Eshmatov degan husnixati chiroyli matematika o‘qituvchimiz bo‘lardi, pasportga qarab o‘tirmasdan, hamma sinfdoshlar qatori mening attestatimga ham komil ishonch bilan “Parkentda tug‘ilgan” deb yozib yuborgan ekan.

Nailoj, qishloqqa qaytib, attestatdagi xato yozuvni to‘g‘rilash harakatiga tushdim. Hamma yozgi ta’tilga chiqib ketgan emasmi, maktab bo‘m-bo‘sh. Direktorimiz – rahmatli Umarali akaning uyiga bordim, boyagi xatoni tuzattirib, keyin tuman xalq maorif bo‘limidan attestatga “Ispravlennomu verit!” degan muhrni bostirgunimcha, oradan ikki-uch kun vaqt o‘tib ketdi.

Nihoyat, hujjatlarni taxt qilib, yana akam bilan Toshkenti azimga yo‘l oldik. Universitetga kelsak, hujjat qabul qilib o‘tirgan Boybo‘ta aka joyida yo‘q, koridorda uzungina, asabiy navbat hosil bo‘libdi. Bir soatlar o‘tgach, u kishi shosha-pisha kirib keldi. Bizdan oldinroqda turgan yoshi kattaroq odam norozi ohangda nimadir degan edi, domla muloyimlik bilan:

– Uzr, kechirasizlar, kelishingizni tug‘ruqxonaga joylashtirib kelyapman, shunga kech qoldim, – deb jilmaydi.

Men oilasida yangi farzand kutilayotgan hayajonli va tashvishli pallada ham ishidan qolmagan, o‘ziga xos og‘ir-vazminlik va sinchkovlik bilan xizmatini davom ettirayotgan bu insonning sabr-bardoshi va mas’uliyatiga qoyil qoldim.

Jurnalistika fakultetida o‘qiganlar biladi, bu dargohda tahsil olmoqni niyat qilgan “abuto‘ra”, ya’nikim, abituriyent zarur hujjatlar bilan birga ijodiy ishlarini – turli nashrlarda e’lon qilingan materiallarini ham topshirishi lozim. Mening sobiq Kommunistik (hozirgi Yuqori Chirchiq) tumanida chiqadigan “Sur’at” gazetasida bosilgan va o‘n ikki varaqli rasm daftariga yopishtirilgan to‘rt-beshta xabar va lavhalarim bor edi, xolos.

Mendan oldin hujjat topshirayotgan yigit sandiqdek bir albomni stol ustiga qo‘ydi. Sekin razm solsam, uning ichida jurnalistikaning hamma janrlaridan namunalar – maqola va reportaj ham, intervyu va ocherk, felyeton, hatto, sahifa-sahifa she’rlar ham bor. Gap-so‘zlaridan ma’lum bo‘ldiki, bu yigit vohadagi tuman gazetalaridan birida mas’ul kotib bo‘lib ishlar ekan.

Boybo‘ta aka uning materiallarini qiziqish va e’tibor bilan ko‘rib chiqdi, so‘ngra: “Ukajon, gazetada katta vazifada ishlar ekansiz, harbiy xizmatga ham borib kelibsiz. Hayotiy va ijodiy tajribangiz yetarli ekan, mening sizga maslahatim, hujjatlaringizni sirtqi bo‘limga topshiring. Chunki, ba’zan universitetni tugatgan jurnalistlar ham loaqal rayon gazetasiga ishga o‘tolmaydi. Sirtqi bo‘limga topshirsangiz, ham oliy ma’lumotli bo‘lasiz, ham ish joyingizni yo‘qotmaysiz”, degani esimda.

Albatta, bu hayotning past-balandini ko‘rgan, bizdan uch-to‘rt ko‘ylakni ortiqroq yirtgan odamning real vaziyatdan kelib chiqib, bo‘lg‘usi talabaga bergan xolisona, xayrixoh o‘gitlari edi.

Muxtasar aytganda, o‘sha ilk uchrashuvdayoq Boybo‘ta Do‘stqorayev menda har qanday holatda ham o‘z vazifasiga sidqidildan, mas’uliyat bilan yondashadigan, mulohazakor, barchaga, ayniqsa, yoshlarga mehr-e’tibor bilan munosabatda bo‘ladigan inson sifatida taassurot qoldirdi. Va yillar osha domla haqidagi bu fikrlarim hayotda o‘z tasdig‘ini topa bordi.

O‘sha vaqtlarda, adashmasam, Boybo‘ta aka fakultetda endi mehnat faoliyatini boshlagan, “laborant” degan kamtarona bir lavozimda ishlardi. Ba’zan katta domlalarimiz uzrli sabablar bilan kelmay qolganida, u kishi bizga dars ham o‘tib turardi.

Aslida, ustoz-shogirdlik degan gap juda shartli tushuncha. Inson ba’zan birgina uchrashuv orqali yoki favqulodda o‘tkir bir fikri, bir og‘iz o‘rinli maslahati bilan ham hayotingizda o‘chmas iz qoldirishi, siz uchun umrbod ustoz maqomida bo‘lib qolishi, aksincha, sizga to‘rt-besh yil saboq berib yoki uzoq vaqt bir idorada, bir xonada birga o‘tirib, sizga rahbarlik qilib ham ustozlik darajasiga ko‘tarila olmasligi mumkin.

Haqiqiy ustoz bo‘lish uchun odamning avvalo ichki dunyosi butun, vijdon-e’tiqodi pok, ma’naviyati yuksak bo‘lishi lozim ekan.

Boybo‘ta aka jurnalistika nazariyasi bo‘yicha orasira o‘tgan mana shu ikki-uch soatlik saboqlari bilan ham biz talabalarning mehrimizni qozonib ulgurgan edi.

Shu o‘rinda o‘sha davrda bizga XIX asr chet el adabiyotidan qisqagina – atigi bir semestr dars bergan betakror Tal’at Solihov domlamiz yodimga tushadi. U tabiatan nihoyatda og‘ir-vazmin, doim ozoda va sipo kiyinib, qalin gardishli ko‘zoynak taqib yuradigan, shu qiyofasi bilan “Urush va tinchlik” filmidagi Sergey Bondarchuk yaratgan Pyer Bezuxov siymosiga o‘xshab ketadigan bir kishi bo‘lib, nafaqat o‘z fanini, balki adabiyot ilmi, so‘z san’ati mohiyatini “suv qilib ichgan” olim edi.

Esimda, bir gal domla mashhur fransuz adibi Gi de Mopassanning “Do‘ndiq” nomli hikoyasini uch soat davomida ipidan ignasiga qadar batafsil tahlil qilib bergan edi.

Tasavvur qilyapsizmi, uch soat faqat birgina hikoya, faqat va faqat tahlil!

Ushbu satrlarni o‘qiyotgan do‘stlarimiz hikoya mazmuni bilan albatta tanish bo‘lsalar kerak, degan umidda uning syujetini aytib o‘tirmoqchi emasman. O‘qimaganlar bo‘lsa, shu bahona mutolaa qilsalar, ajab emas.

Faqat shuni aytmoqchimanki, dilijans aravada ketayotgan bir guruh fransuz fuqarolarini yo‘ldagi nazorat bekatida bir pruss zobiti to‘xtatadi va ular orasidagi fohisha ayol – Do‘ndiqning o‘zi bilan intim aloqada bo‘lishini ochiqdan ochiq, surbetlarcha talab qiladi. Bu gapni eshitib, aravadagi yo‘lovchilar – amaldor, ruhoniy, olim, savdogar, harbiy xizmatchi va boshqalar dastlab qattiq darg‘azab bo‘ladilar. Ammo oradan ikki kun o‘tgach, ular endi yaramas prussakning talabiga ko‘nmasdan, ularni yo‘ldan qoldirayotgan Do‘ndiqdan norozi bo‘lib, uni dushman zobitining istagini bajarishga qistay boshlashadi. Ya’ni, bu xudbin kimsalar o‘z manfaati yo‘lida g‘animdan nafratlanish, jirkanish o‘rniga unga xushomad qilishga, o‘z millatdoshi bo‘lmish baxtiqaro ayolga nisbatan sotqinlik qilishga tayyor ekanliklarini namoyish etadilar.

Uchinchi mashg‘ulot so‘ngida Tal’at aka: “Mopassan asarda tasvirlagan bosh qahramon – bu fohisha ayol Do‘ndiq emas, hikoyaning bosh qahramoni – bu o‘z fuqarolarining ma’naviy qo‘rqoqligi va xiyonati sababli Prussiyaga qarshi urushda mag‘lubiyatga uchragan mazluma Fransiya”, deya bu kichkinagina hikoyadan juda katta, favqulodda teran falsafiy xulosa chiqargan va buni eshitib, hammamizning ko‘zimiz yarq etib ochilib ketgan edi.

Mana shunday unutilmas saboqlar tufayli men haqiqiy adabiyot qanday bo‘lishini, chinakam badiiy asarning ikkinchi ma’nosi, ikkinchi qatlami ham borligini va uni anglash zarurligini o‘rgandim.

Keyinchalik jahon adabiyotining mashhur namoyandalari, xususan, Xeminguey, Markes, Joys singari adiblar ijodiga mansub ko‘p ma’noli, tagdor qatlamli asarlarni mutolaa qilar ekanman, ularning mag‘zini chaqish, botiniy mazmunini idrok etishda Tal’at Solihovning saboqlari, hech shubhasiz, men uchun noyob dastur, sehrli kalit vazifasini o‘taganini minnatdorlik bilan e’tirof etaman.

Qalbimdagi chuqur hurmatga qaramasdan, men Tal’at Solihov bilan yaqin bo‘lib keta olganim yo‘q. Rahmatli domlaning o‘zlari ham juda salobatli, sipo va sirli inson edi-da. U kishini universitetda onda-sonda uzoqdan ko‘rib qolar edik. Hozirgacha shu yuksak intellektual salohiyatli shaxsning suhbatidan ko‘proq bahramand bo‘lmaganimga, ko‘proq bilim olib qolmaganimga achinaman.

Lekin shunga qaramasdan, men Tal’at domlani Asqad Muxtor, Erkin Vohidov singari chin ustozlarim qatori hamisha ehtirom bilan yodga olaman. Xuddi shuningdek, Boybo‘ta Do‘stqorayev ham men uchun ustozlik maqomiga ega inson ekanidan faxrlanaman.

Oradan yillar o‘tdi. Universitetni tugatib, hammamiz har tomonga tarqab ketdik. Boybo‘ta aka qadrdon dorilfununda qoldi. Men domlaning ijodiy va pedagogik faoliyatini imkon qadar kuzatib, yozganlarini o‘qib, turli tadbirlarda salom-alik qilib yurdim.

Va nihoyat, 2010-yili u kishini yirik va zahmatkash olim sifatida o‘zim uchun yangitdan kashf qildim.

Kunlarning birida Boybo‘ta aka men ishlayotgan Prezident devoniga murojaat qilib keldi. Ma’lum bo‘lishicha, domla ancha vaqt muqaddam “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” nomli darslik yaratgan bo‘lib, qo‘l-



yozma turli bosqichlarda ilmiy muhokamalardan o‘tib ijobiy baholangan, lekin qandaydir sabablarga ko‘ra bosilmay kelayotgan ekan. Muallifning iltimosidan so‘ng qo‘lyozmani oliy ta’lim vazirligi rahbarlaridan biri “shaxsan o‘zim ko‘rib chiqib, hal qilaman”, degan va’da bilan qabul qilib olgan, ammo qariyb yarim yildan buyon bu ilmiy ish uning g‘aladonida harakatsiz yotgan ekan.

Garchi bu darslikni chop etish masalasi mening xizmat vakolatimga kirmasligini yaxshi bilsa-da, domla qo‘lyozma bilan shunchaki bir o‘quvchi sifatida tanishib chiqishimni so‘radi.

Odatda ilmiy tadqiqotlar, darslik va qo‘llanmalar qat’iy talablar asosida, o‘ziga xos uslubda yaratilishiga, shu sabab ularni “hazm qilish” ham oddiy kitobxon uchun ancha murakkab, hatto biroz zerikarli bo‘lishiga hammamiz ko‘nikib qolganmiz.

Lekin “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. 1-qism. 1870 – 1917-yil noyabr” deb nomlangan, kattagina hajmli ushbu qo‘lyozma bilan tanishar ekanman, ochig‘ini aytsam, xuddi o‘tkir syujetli detektiv asarni o‘qiyotganday, undan bosh ko‘tara olmay qoldim.

Chuqur ilmiy tahlil, insoniy harorat, faol grajdanlik pozitsiyasi, eng muhimi, milliy istiqlol g‘oyasi bilan sug‘orilgan bu asar o‘ta jiddiy, g‘oyat og‘ir va mashaqqatli mehnatning samarasi bo‘lib, shak-shubhasiz, ma’naviy jasorat namunasi edi.

Qo‘lyozmani o‘qib tugatgach, beixtiyor o‘yga toldim. Muallifning O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Kitob palatasi, Davlat markaziy arxivi va boshqa dargohlarda qanchadan-qancha tarixiy manbalarning, bundan bir-bir yarim asr oldin chop etilgan, varaqlari hilvirab ketgan gazeta-jurnal taxlamlarining changini yutib, necha yillar tinimsiz izlanishlar olib borgani, o‘nlab, yuzlab sahifa materiallarni faqat qo‘lda ko‘chirib chiqqanini o‘zimga tasavvur qildim. Manbalardan parcha va iqtiboslarni to‘plash o‘z yo‘liga, lekin ularning barchasini bir mantiq ipiga mohirona, xuddi marjondek tizib chiqilgani meni behad lol qoldirdi.

Kitob nohaq qatag‘onga uchragan, otilgan, osilgan, so‘yilgan, lekin “Vatan uchun, millat uchun” degan hayot maslagidan qaytmagan ma’rifatparvar ajdodlarimiz faoliyatining so‘nmas bir jabhasi – jadidchilik deb ataladigan ulkan va qudratli harakatning tub ildizi, uning tadrijiy taraqqiyoti va fojiali taqdiridan hikoya qilardi.

Bu asarning har bir varag‘i, har bir satrida Turkiston qayg‘usi, Turkiston dardi unsiz faryod kabi yangrardi.

Bu – mustaqil O‘zbekistonning chin ziyolisi bo‘lgan fidoyi shaxs tafakkuri bilan yaratilgan, so‘nggi yillarda men qanoat hosil qilib o‘qigan oz sonli kitoblardan biri, ta’bir joiz bo‘lsa, Boybo‘ta Do‘stqorayev degan zahmatkash olim umrining bosh kitobi edi.

Garchi muallif bugungi yoshi ulug‘ barcha insonlar qatori umrining asosiy qismini sovet mafkurasi davrida o‘tkazgan bo‘lsa-da, “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” asari uning eski g‘oya va maslaklardan butunlay voz kechib, istiqlolimizni anglash va qadrlash, ozodlik yo‘lida jon fido qilgan ajdodlarimizning jasoratli kurashini o‘rganish va targ‘ib etishga qaratilgan oliyjanob va ibratli intilishlarini o‘zida yorqin mujassam etadi.

Ushbu tadqiqotning yana bir noyob xususiyati – muallif unda faqat birlamchi manbalarga, aniq fakt va ma’lumotlarga asoslanib mushohada yuritadi, ortiqcha izoh va tafsilotlarga deyarli o‘rin bermaydi. Asarda faqat hujjat va dalillar “gapiradi”, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix tilga kiradi. Bu esa kitob bilan tanishgan har qanday o‘quvchining ongida mustaqil va xolis fikr uyg‘otadi.

Tadqiqot ishida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Hamza, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin singari nomlari hammamizga, keng jamoatchilikka yod bo‘lib ketgan atoqli jadid namoyandalaridan tashqari, sharafli ismlari, ezgu ishlari hali-hanuz ko‘pchiligimizga notanish va noma’lum bo‘lib kelayotgan Obid Ismoilov, Mirhaydar Mirbadalov, Jalol Yusufzoda, Mo‘minjon Muhammadjonov, Rauf Muzaffar, Xolid Said, Karimbek Norbek o‘g‘li, Obidjon Mahmudov, Ubaydulla Sulaymoniy, Shokirjon Rahimiy, Kabir Bakir, No‘shiravon Yovushev, Abdurahmon Sodiq o‘g‘li, Muhammadqul O‘rinboyev, Mavlon Ashurboyev singari o‘nlab, yuzlab ma’rifatparvar kurashchilar haqida g‘oyat nodir ma’lumotlar bayon etilgan. Bu ajoyib odamlarning har biri haqida doston yozsa arziydi.

Muallif shunday ta’sirchan misollarni topib keltiradiki, o‘quvchi o‘ta og‘ir tarixiy sharoitda, chor hukumati syenzurasi va ta’qibiga, mahalliy amaldorlar va mutaassib kimsalarning qarshiligiga qaramasdan, milliy matbuotimiz fidoyilarining beqiyos mardligi va matonatidan xabardor bo‘ladi. Bu jasur ota-bobolarimizning mislsiz sa’y-harakatlari, azob-uqubatlari hisobidan yorug‘lik yuzini ko‘rgan “Hurriyat”, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Tujjor”, “Samarqand”, “Shuhrat”, “Najot”, “Oyina” kabi mashhur nashrlar bilan bir qatorda, “Oziyo”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “Sho‘roi islom”, “Turk eli”, “Ulug‘ Turkiston”, “Tirik so‘z”, “El bayrog‘i”, “Kengash”, “Yurt”, “Al-Isloh”, “Al-Izoh”, “Chayon” singari o‘nlab gazeta va jurnallar haqidagi mutlaqo yangi ma’lumotlar kitobxonni hayratga soladi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Boybo‘ta Do‘stqorayev mana shu fundamental asari bilan o‘zbek xalqi tarixining shonli, munavvar davri – jadidchilik harakatining unutilayozgan, biz bilmagan noma’lum va ayni vaqtda yorqin sahifalarini tiklab berdi.

Mazkur kitob yaratilayotgan vaqtda yurtimizda Ozod Sharafiddinov, Sharif Yusupov, Solih Qosimov, Sherali Turdiyev, Begali Qosimov, Naim Karimov, G‘aybulla Salomov, Saydi Umirov, Ulug‘bek Dolimov, Rustambek Shamsuddinov, Zaynobiddin Abdurashidov, Sirojiddin Ahmedov, Shuhrat Rizayev, Bahodir Karimov, Halim Saidov kabi ko‘plab olimlar mazkur yo‘nalishda samarali faoliyat olib bormoqda edilar. Ammo ayrim vazirlik va idoralar xodimlarida jadidchilik harakatiga hamon hadiksirab qarash, ushbu mavzu tadqiqotchilarini iloji boricha e’tibordan chetda tutishga urinish holatlari saqlanib kelayotgani sir emas. “O‘zbek jurnalistikasi tarixi” kitobining qo‘lyozmasi vazirlik g‘aladonlarida sirli ravishda bedarak yotishi ham ana shunday qo‘rquv, ma’naviy mutelikning bir ko‘rinishi edi, xolos.

Mutolaa nihoyasiga yetgach, men darhol domlaga telefon qilib, ushbu fundamental asar bilan tabrikladim, taassurotlarim va ayrim fikr-mulohazalarimni bildirdim. So‘ngra masalaning amaliy tomoniga kirishib, oliy ta’lim mutasaddilari bilan bog‘landim, darslikni nashr etish bo‘yicha birgalikda ish olib bordik. Nihoyat, asar dunyo yuzini ko‘rdi. Ziyolilarimiz, talaba yoshlar, keng madaniy jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olingan kitob ilmiy-ma’rifiy hayotimizdagi muhim voqea sifatida e’tirof etildi.

Mana shunday ezgu ishga ozmi-ko‘pmi hissam qo‘shilganidan hali-hanuz quvonib, g‘ururlanib yuraman.

Boybo‘ta aka o‘ziga xos insoniy kamtarligi, muloyim fe’l-atvori, tabiatan xoksorligi tufayli yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar ro‘yxatida, ularning davrasida aksariyat hollarda ko‘zga ko‘rinmaygina yurardi. Lekin domla mana shu kitobi bilan o‘zining qanday yuksak salohiyatga ega ekanini, birgina asar bilan ham ilm-fan, adabiyot tarixidan munosib va mustahkam o‘rin olish mumkinligini isbotlab bergani ayniqsa e’tiborlidir.

Biz ba’zan hayajonimiz jo‘shib, Asqad Muxtor, Begali Qosimov singari adib va olimlarimizga nisbatan haqli ravishda “so‘nggi jadid” degan ta’rifni ishlatamiz. Boybo‘ta Do‘stqorayev ham ana shunday ulug‘ shaxslar qatoridan o‘rin egallashga loyiq ma’rifat sohibi edi.

Men ishonaman, agar u kishi o‘zi har tomonlama chuqur tadqiq etgan davrda, ya’ni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashaganida, hech shubhasiz, jadidlarning eng fidoyi vakillaridan biri sifatida namoyon bo‘lur edi.

Domla kitobiga ezgu tilaklar bitib, menga ham



sovg‘a qilgan edi. Endilikda noyob bibliografik manbaga aylanib qolgan ushbu asarni dam-badam o‘qib turaman va har gal mutolaa chog‘ida yangi-yangi qiziqarli tarixiy ma’lumotlarga duch kelaman, muallifning chekkan zahmatlari, fidokorona mehnatlarini o‘ylab, qoyil qolaman.

Boybo‘ta Do‘stqorayev “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” kitobi uchun “Oltin qalam” milliy mukofotiga sazovor bo‘ldi. Matbuot tarixini o‘rganishga oid salmoqli asarlari, ta’lim sohasidagi ko‘p yillik samarali faoliyati inobatga olinib, davlatimizning yuksak mukofoti – “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Afsuski, mamlakatimizdagi barcha bo‘lg‘usi jurnalistlarning, har bir adib va shoir, ommaviy axborot vositalari xodimlarining, ijtimoiy-gumanitar sohada faoliyat yuritayotgan domla va o‘qituvchilarning, umuman olganda, o‘zini ziyoli deb hisoblaydigan har qaysi insonning nainki kitob javonidan, balki yuragidan o‘rin olishi, doimo ish stolida turishi zarur bo‘lgan mana shunday noyob kitob juda kam – bor-yo‘g‘i 2 ming nusxa chop etilgan edi.

Mana, u nashr etilganidan buyon oradan 13 yil o‘tibdi. Shuncha vaqt davomida milliy o‘zligimizni anglash, tariximizdan g‘oyat zarur va ibratli xulosalar chiqarish borasida bebaho manba bo‘lgan ushbu darslik qayta nashr etilmagani, albatta, achinarlidir. Mutasaddi tashkilotlar, tegishli rahbarlar bu masalaga alohida e’tibor qaratadilar, deb barchamiz umid qilamiz.

Yuqorida aytganimdek, kitobning ilk sahifasida “1-qism. 1870–1917-yil noyabr” degan yozuv qayd etilgan. Asar darslikning ikkinchi qismida qanday mavzular haqida so‘z yuritilishiga oid eslatma bilan yakuniga yetadi. Demak, uning keyingi bo‘limlari ham qisman yozilgan yoki ularga materiallar to‘plangan bo‘lishi mumkin.

Taassufki, domla umrining oxirlarida og‘ir dardga chalinib, boshlagan ezgu ishini oxiriga yetkaza olmagani barchamiz uchun armon bo‘lib qoldi.

Lekin hali ham kech emas. Agar “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi” qayta nashr qilinadigan bo‘lsa, ustozning shogirdlari, farzandlari tomonidan muallifning shaxsiy arxivida qolgan qo‘shimcha materiallar bilan to‘ldirilib, boyitilib chop etilsa, ayni muddao bo‘lur edi. Zero, keyingi yillarda yurtimizda ma’rifatparvar bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyatini o‘rganishga qaratilayotgan alohida diqqat-e’tibor ham shuni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tarixga, xususan, yaqin o‘tmishimizda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy jarayonlar, xususan, jadidchilik harakatiga, ta’lim-tarbiya masalasiga munosabat va e’tibor tubdan o‘zgargan, shu bilan birga, tinch va osoyishta hayotimiz, ma’naviyatimizga turli tahdid va xatarlar kuchaygan bir vaziyatda “O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi”dek kitoblar biz uchun suv bilan havodek zarur, deb o‘ylayman.

Biz Boybo‘ta Do‘stqorayevdek o‘zining butun ongli hayotini ma’rifat va ezgulikka bag‘ishlagan, ilmdan, so‘zdan boshqa tamasi bo‘lmagan fidoyi olimlarimizni el-yurtimizga, yoshlarimizga ko‘proq tanitishimiz, ular haqida ko‘rsatuv va maqolalar, kitoblar e’lon qilishimiz, xotira kechalari, tavallud sanalarini muntazam o‘tkazib borishimiz kerak.

Buyuk Zahiriddin Muhammad Bobur aytganlarki: “Donishmandlar sharaf bilan yodlanishni ikkinchi umr demishlar”.

Shu ma’noda, ibratli hayot kechirib, solih farzandlar o‘stirgan, bilimdon shogirdlar tayyorlagan, sevgan kasbida ona yurtga sadoqat bilan xizmat qilib, o‘zidan qutlug‘ meros, yaxshi nom qoldirgan Boybo‘ta Do‘stqorayev bugun o‘zining ikkinchi umrini yashamoqda.

Ilohim, domlamizning oxiratlari obod bo‘lgan bo‘lsin.

Xayriddin SULTON,
yozuvchi

MUSHOHADA

ADABIYOT XUSHOMAD, TAMAGIRLIK VA ZULMKORLIKDAN FORIG‘ BO‘LSIN

Vatan hayoti va qismati, taqdiri, istiqboli haqida fikr yuritgan biron kishi yo‘qki, adabiyotga bosh urmasin. Xushomad, tamagirlik, zulmkorlikdan forig‘ bo‘lgan mumtoz adabiyot inson qalbini zargar olmosni tarashlagandek tarashlaydi, toza nurga to‘ldiradi; misli tilsim kabi ko‘p narsani o‘z qa’rida saqlaydi, devorsiz ko‘chani ko‘rsatadi.

Agar u islom nuri bilan to‘yingan bo‘lsa, yanada go‘zal, odam degan jonzotning zehniyat olamini insoniyat asrlar mobaynida to‘plagan durlar bilan to‘ldiradi. Omonat dunyo uchun keraksiz bo‘lgan yuklardan qutqaradi. U inson qalbiga Vatanga shunday bir ulug‘ muhabbat joylaydiki, misli shoir Cho‘lpondek o‘sha muhabbatni o‘ziga mayoq qilib oladi. Oila, qavmi-qarindosh nazarida muftiy lavozimda ko‘ringan Mahmudxo‘ja Behbudiy qalbida bobokaloni hazrat Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh she’riyati va adabiyotga, vatanga muhabbat, porloq imon qalbidan keng o‘rin olgani uning maqolalari, keltirgan she’riy parchalaridan yaqqol sezilib turadi.

Bayt va to‘rtliklarda adibning tili emas, qalbi so‘zlaydi. Vatanga muhabbat oddiy muslimning imoni butunligidan dalolat. Buyuk ustozni jamiyatga muallim, vatanga, millatga posbon etgan o‘sha imon, o‘sha buyuk va ulkan adabiyotdir.

Buyuk muallimning faqat o‘zbek mumtoz she’riyatidan emas, balki fors mumtoz adabiyotidan bahramandligi uning Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Bedil, Shayx Muslihiddin Sa’diy, arablardan Abul Alo al-Maarriy, zamondoshlari Vasliy Samarqandiy va boshqalar ijodiga nazari seziladi.

“Bizga saodatdurki, – deydi Behbudiy, – turkiy va forsiyni tahsilsiz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsiyni turkiy bilmog‘i lozimdur. Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa’diy, “Masnaviy”-din qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolstuy, Jul Vern va ulamoyi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan shunday lazzat olur”. Ko‘rinib turibdiki, ulug‘ muallim adabiyotning xalqlar aro tarqalishida til bilmoq kerakligini uqtirmoqda. Shu bilan birga, yuqoridagi fikrini to‘ldirib, ruscha va fransuzcha bilmoqni ham tavsiya etadi. U fikrini davom ettirib shunday deydi: “Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy va rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo‘lur na uchunki butun usmonli, Kavkaz va Qozon turklari zamona ulamosi asarini turkiyg‘a tarjima qilib, ko‘payturgonlar, ya’ni turkiy bilgan kishi zamonni bilur. Turk tilig‘a har bir yangi va naflik kitoblar barcha tildan tarjima bo‘lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalangandek, zamoni hozira madaniyati Tolstoy, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur”. Binobarin Mahmudxo‘ja Behbudiy tarjima adabiyotiga ham o‘zbek o‘quvchilarining e’tiborini tortdi. (Buning natijasida Tolstoy, Gogol asarlari o‘sha davrda o‘zbek tiliga tarjima qilingani ma’lum. Shu bilan birga 20-yillarda yevropalik adiblarning asarlari tarjimasi milliy matbuotda paydo bo‘lishiga yo‘l ochildi.) Ulug‘ muallimning o‘zi Turkiya matbuotida bosilgan, xossatan, tarjimon va shoir Akram Rijoiyzoda tomonidan nashr etilgan tarjimalar bilan o‘zbek o‘quvchilarini tanishtirdi.

“Muhtaram Muso afandi sharafina” maqolasida Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sidan ayrim baytlarni tabdil qilib e’lon qildi. Rumiyning insoniyatning ibtidoiy holatdan yuksak madaniyat, ma’naviyat darajasiga ko‘tarilish yo‘llari haqidagi fikr-mulohazalarini targ‘ib qilar ekan, inson hayotida mehnatga ijodiy yondashuv odamzodni buyuklik maqomiga ko‘targanini ma’lum etadi, Darvinning g‘oyalari insoniyat uchun yangilik emasligini aytadi. Hatto ayrim kishilar zikr etilgan fikr Bedil ijodiyotida ham bor ekanini aytishganini ta’kidlaydi.

Fitratning “Munozara” asari haqida taqriz yozib, uni muvaffaqiyat bilan tabriklar ekan, asarda rus tilining o‘rnini ko‘rsatsa yaxshi bo‘lishini tavsiya etadi. Ayrim tor fikrli kishilar bu taklifni pisand qilmasliklari yoki xohlamasliklari mumkin. Ammo Mahmudxo‘ja

Holbuki, tiyotrning asl ma’nosi ibratxona yoki ulug‘lar maktabi, degan so‘zdur. Tiyotr sahnasi har tarafi oynaband qiling‘on bir uyg‘a o‘xshaydurki, unga har kim kirsa, o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rub ibrat olur.

Munavvarqori ABDURASHIDXONOV

Behbudiy yashagan davrni, chor hukumati, uning harbiy va fuqaro amaldorlari, mustamlakachilikning omonat pog‘onasida turib, xalqimizning zakovatli kishilari mehnati, millatimiz erk va taraqqiyotiga sun’iy to‘siq qo‘yish hamda milliy ma’naviyat va madaniyatni inkor qilish bilan tantana qilayotgan bir davrda ularga qarshi ma’rifat bilan kurashish uchun dushman tilini o‘rganish kerakligini ayta oldi.

Buyuk muallim fikrlari milliy adabiyotimizda adabiy tanqidchilikning ilk kurtaklaridir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu holatni “Samarqand fuzalolari” maqolasida ham ko‘rish mumkin. Uning hijriy XIII asr oxirlarida vafot etgan shoir Qurbon Muhammad Olim Xo‘jandiyning aqoidga oid asari haqida Vasliy tomonidan sharh yozilib, “Al-favoid al-masbuta fi hall aqoid g‘ayr il-manquta” nomi bilan nashr etilgani hamda ushbu asarga samarqandlik yetti shoir madh yozganini aytadi. Ularning fikrlarini yanada to‘ldirish uchun agar zikr etilgan “fuzalo va shuaro o‘z o‘qigan ilm va fanlarig‘a bad tavl sohibidurlar va agarda bu muhtaramlar fununi jadida va kashfiyoti hodisa va ijoboti zamoniyag‘a voqif o‘lsalar, hukamoi soniya va falosifai hozira va adabiyoti oxirag‘a ko‘z va quloq solmoqg‘a tanzil etsalar, shaksiz, talabag‘a ko‘p-ko‘p foyda yetkurar erdilar”, deydi. Ushbu fikrning zamiriga qarasak aytilgan so‘zlar faqat talabga emas, shoir va fozillarning o‘ziga ham taalluqli ekaniga ishonch hosil qilamiz.


Behbudiy bu fikrlar bilan kifoyalanmaydi. O‘sha davrda adabiyotga intim she’riyat kirib kelayotganiga ishorat qilib, “Shuaromiz hatti holdin ziyodaroq mayl ila milliy va ijtimoiy va asotirdan mubarro tarixiy she’rlar aytsalar va qudratlik kishilar tab’ etsalar, ayni manfaati moddiy va ma’naviydur. Oxirg‘i vaqtlarda Toshkandda tab’ bo‘lgan ba’zi ash’or sababi fasodi axloq ham aybdur, munday nimarsalarni matbuot ila tanqid etmak kerak”, deydi.

Intim she’riyat xalq hayotiga zarar keltirishini buyuk muallim o‘z davrida aytgani bejiz emas. “Tiyotr-u, musiqiy, she’r” maqolasida teatr san’atining jamiyat hayotidagi o‘rniga shubha bildirgan Vasliy Samarqandiyning “Sadoyi Farg‘ona” gazetasida bosilgan “Shariyati islomiya” maqolasiga yozilgan javobda Behbudiy “Maqolalarining oxirindagi o‘z so‘zlarig‘a ko‘ra ul janobdan umid qilinurki, o‘zlarining “Devoni Vasliy”larig‘a yozilgan shu she’rdagi baytlarini va shularga o‘xshash “qabih” yuzlar ila “muvashshah” nomindagi nimarsalarni yozib, nashr qilmoq shar’an va axloqan nima ekanligini lutfan bayon etsalar edi”, deydi va:

Vasliy, oxir oshno bo‘lgum topib ul sho‘xni,
Qo‘ynig‘a bir kecha bo‘lg‘um jo topib ul sho‘xni

kabi boshqa baytlarini misol keltirib, shoirni xijolat qiladi. Teatr san’ati bunday qabohatdan yuksak ekanini aytadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ijtimoiy she’riyatni, davr va tuzum, insonlarning axloqini go‘zallashtirishga qaratilgan adabiyotga alohida mehr bilan boqadi. Adibning “Sho‘ro” majallasida chop etilgan “Eski fikrlardan” maqolasi Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror”dan saralab olgan ayrim baytlarning ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy, hatto aytish mumkinki, siyosiy qirralarini kashf etishni kitobxon e’tiboriga havola qiladi. Behbudiy va uning mutafakkir zamondoshlarini bezovta qilgan fikr-mulohazalar besh yuz yil avval ham mavjudligi bilan tanishtirishga jur’at etdi. Bid’at, amaldorlarning munofiqligi, razolati o‘sha davrda ham ustun bo‘lganini afsus bilan ta’kidlaydi.



Mahmudxo‘ja BEHBUDIY

Buyuk muallim noshirlar, bosmaxonalar, matbuot turli asarlarni chop etmoqda, ammo bulardagi kamchiliklarni tuzatuvchi kishilarimiz hali yetilgani yo‘q, deydi. Adabiyot “qoida va tartiblarga amal qilmay ommag‘a zarar kelturgonini tanqid etmoq boisi isloh bo‘lur...”, “Jaridalarg‘a maqola va ash’orlar o‘qulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davrig‘a yetushganimiz yo‘q”, deydi afsuslanib.

Turkiston adabiy jamiyati tanqidga tayyor emasligini ochiq bayon qiladi: “Ittifoqan, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarg‘a qattig‘ tegar. Yozganlarimizni buzuqlig‘i va fikrimizning xatoligi, ishimizning noqisligini biror kishi ko‘rsatsa, achchig‘imiz kelar. Va ul odamni dushman ko‘rub, shaxsidan nafrat va fikrig‘a norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishg‘a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur... Diqqat ila munaqqid so‘zini tinglamaymiz...”

“Tanqidni ko‘tarolmaganimizg‘a, to‘g‘risi, hanuz tanqidg‘a loyiq bo‘lmaganimiz...”

Adabiy tanqid alloma e’tiboridagi eng muhim masalalardan biri ekanligi va Turkiston jamiyati jiddiy adabiy tanqidga tayyor emasligi yuqorida keltirilgan ko‘chirmalardan ayon. Ammo shunga qaramay, adib bu masalaga e’tiborini susaytirmagani uning boshqa maqolalarida ham seziladi. Yana bir narsani ta’kidlamoqchimizki, buyuk ustoz adabiy tanqidga oid, islom madaniyatiga oid juda ko‘p arabcha va turkcha hamda o‘zga tillardan turkchaga tarjima qilingan asarlardan, jumladan, Jaloliddin Rumiyning ozarbayjon tiliga tarjima qilingan tarjima va sharhlaridan, turkcha sharhlari bilan tanish bo‘lgan. Keltirilgan misollarga suyangan holda biz Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr adabiy tanqidchiligining yo‘lboshchisi, deyishga haqlimiz. Adib ijodi bunga yaqqol misol.

Sirojiddin AHMAD

QUTLOV

Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilish, millatni uyg‘otish edi. Qrim-tatar ziyolisi Ismoil Gaspiralning “Tilda, fikrda va amalda birlik” fikri bizni bugun ham atrofga nazar tashlashni talab etadi.

MILLIY UYG‘ONISH KO‘ZGUSI

Biz adabiyotshunos bo‘lganimiz uchun ko‘rkam adabiyot orqali milliy uyg‘onish misollarini ko‘rib chiqishimiz tabiiy. Zotan, ijod ahli hamisha o‘z xalqining uyg‘oqligini istashadi.

Yaqinda men O‘zbekistonning iste’dodli yosh adiblaridan biri Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romanini o‘qib chiqdim. Berlinga o‘qish uchun borgan yoshlar haqida keng tasavvurga ega bo‘ldim. Hech shubha yo‘qki, badiiy adabiyot ba’zida tarixiy ma’lumotlardan ko‘ra ma’lum bir tarixiy davrni yaxshiroq bilishga, uni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Javlon romani menga juda yaxshi taassurot qoldirganini ta’kidlashni istar edim.

Jadidlarning barcha harakati xalqni ma’rifatga yo‘naltirgan buyuk ishlarga undaganiga guvoh bo‘lish mumkin. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Bilga Xoqon” romanini o‘qiganimda ham muallifning o‘zlikni anglash, xalqni uyg‘onish va turkiylar tarixini o‘ziga xosligini ko‘rsatgani seziladi. Bugun qozoq adabiyoti ham Abay, Muxtor Avezov, Mirjaqip Dulatovlar boshlagan uyg‘onish jarayonini boshidan kechirmoqda. Shunday ekan, XXI asrda ham jamiyatda jadidchilik g‘oyalariga talab bor va bu nashr millat ma’rifatiga, modernistik g‘oyalar targ‘ibotiga hissa qo‘shishiga ishonamiz!

O‘ylaymizki, Markaziy Osiyoda badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari mazmunan uyg‘onishdan aslo to‘xtab qolmasligi kerak. Shundagina mintaqamizga xos bo‘lgan islomiy va turkiy milliy qadriyatlarni internet birlashtirgan cheksiz makonda himoya qilishning yo‘li bo‘ladi. Mustamlakachilikka qarshi kurashgan Turkiston o‘lkasining taniqli arbobi Mustafo Cho‘qay: “Gullab turgan jangal benihoya go‘zal ko‘rinadi. Vaqti kelib Turkiston o‘lkasi guldek ochiladi. Zotan, har bir xalqning farovonlik davri bo‘ladi”, degan edi. Bu fikrni taniqli qozoq yozuvchisi Tinimbay Nurmag‘anbetovning “Mustafo Cho‘qay” nomli dramatik asaridan o‘qigan edim. Kelajakda biz M. Cho‘qay orzu qilgan Turkiston o‘lkasining gullab yashnagan davrini ko‘ramiz, albatta. Zero, Mustafo Cho‘qay umr bo‘yi Turkiston mustaqilligi uchun mustamlakachilik tuzumiga qarshi kurashib, xorijda vafot etgan edi.

“Jadid” gazetasining sahifalari jamiyat uchun zarur bo‘lgan mazmun va materiallar bilan boyib borishini chin dildan tilaymiz!

Aynur Axmetova,
adabiyotshunos,
Qozog‘iston, Olmaota

Boshi 1-sahifada

“FRANSANI SAODATLI TO‘G‘RI YO‘LGA SOLDILAR...”

Cho‘lpon o‘zbek adabiyotiga olib kirgan fransuz motivlari va ularda aks etgan tarixiy hodisalar talqini o‘zbek xalqining dunyoqarashini yangilaydi va pirovardida jamiyat hayotiga muayyan ma’noda ta’sir ko‘rsatadi, deb umid qiladi. Fransuz ma’rifatparvar va ijtimoiy adabiyotidagi eski tuzumni, monarxiyani, xurofot va bid’atni fosh etib, shu tariqa xalqni ozodlikka, erkka chorlash motivlari Cho‘lpon ijodida ayni shu masalalar bilan bir qatorda Vatanni, millatni istibdoddan qutulishga chorlash motivlari bilan to‘yinib boradi.

Cho‘lpon ijodining shakllanishida jahon tarixi, jumladan, fransuz jamiyatida ro‘y bergan taraqqiyparvar harakatlar muhim ahamiyat kasb etdi, estetik ideallari qaror topishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Fransaning ixtiloli necha yillar tortildi,
Qancha vijdon egalari qora pulga sotildi,
Qancha jonlar talaf bo‘ldi, qancha qonlar to‘kildi,
Qancha to‘g‘ri qahramonlar “kofirlar”, deb so‘kildi.
Kurashdilar azamatlar, hurriyatni oldilar,
Fransani saodatli to‘g‘ri yo‘lga soldilar.
Siz-da shundan ibrat oling,
qiling shunga ixtimom,
O‘lim kutgan do‘stingizdan
sizga salom, ehtirom.

Cho‘lpon bu she’rni yozganida 20 yoshda edi. She’r “Najot” gazetasining 1917-yil 18-iyun, 20-sonida bosilgan.

E’tibor bersangiz, she’r Fransiyadagi inqilobiy harakatlarni talqin etishdan boshlanadi, biroq asar mohiyatan bu hadigina emas. Fransuz xalqining ozodlik yo‘lidagi kurashlarini e’tirof etgach, muallif she’r davomida tasvir va talqin zamiriga boshqa yangi g‘oya va fikrlarni singdiradi. Chunonchi, fransuz jamiyatida ro‘y bergan hodisalarga nisbatan aytilgan “Qancha vijdon egalari qora pulga sotildi” degan fikr nainki fransuzlar hayoti, balki o‘sha davr Turkiston hayotiga ham daxldor ekanini keyingi misraning o‘ziyoq tasdiqlab turibdi. Yaxshi hayot, yangi turmush uchun qon to‘kkan qanchadan qancha qahramonlar “kofir”likda ayblandi, degan fikr bunga dalil. Bizda ilg‘or taraqqiyot yo‘liga kirgan, jadid g‘oyalarini ma’qullab, xurofot va bid’atga qarshi chiqqan, bu boradagi ayovsiz kurash ishtirokchilarini qadimchilar shunday deb ataganlar.

She’r Oktabr to‘ntarishidan salkam yarim yil avval yozilgan. Bu vaqtda ham elyurtni ochiqdan ochiq istibdoddan qutulishga chorlash mumkin emasdi. Shu bois shoir bu maqsadni ma’lum daraja yashirin tarzda: fransuz jamiyatidagi hodisalarga munosabatdan kelib chiquvchi saodatli yo‘lga chorlov sifatida talqin etadi.

Cho‘lponning “Parij kommunasi” nomli she’ri Parij kommunasining 50 yilligi munosabati bilan 1921-yili yozilgan. Nazarimda, “Parij kommunasi” she’rida Cho‘lpon o‘z milliy maqsadlarini, Istiqlol g‘oyalarini ifodalashga, ilgari surishga intiladi. Taxtlar pishiq, qirollar baxti mustahkam edi, deb yozadi she’r avvalida muallif. Qullar o‘z o‘rnida. Podsholar ulug‘. Lekin Parij kommunasi sodir bo‘ldi-yu qirollikni, podshohlikni olqishlagan bayroqlar yuztuban ketdi. Qashshoqlar hokimiyatni qo‘lga oldi. Afsuski, uzoq ushlab turishning imkoni topilmadi. Hokimiyat hukmronlikni tezda qaytarib oldi...

“Parij kommunasi”dagi bu poetik fikrlar Parij kommunasi bog‘liq tarixiy hodisalarnigina emas, shuningdek, “Turkiston muxtoriyati”ning ham boshidan kechgan hodisalarni yodga solmayaptimi?

Umr bo‘yi yosh to‘kmagan shod, ochiq,
Yosh ko‘zlarni bu hukumat yoshladi.

Bu ko‘zlar nafaqat kommunalar, balki, ayni vaqtda, muxtoriyatning ham ko‘z yoshlari emasmi?

Yangi turmush qurmoq bo‘lgan faqirlar,
Eskilikka qo‘rqinch kurash boshladi.

Mana shu o‘rinda shoir, nazarimda, asl muddaoga, jadid qahramonlar tasviriga yaqinroq kelgan. Ayniqsa, “eskilikka qo‘rqinch kurash boshladi”, deyilgan misra menga jadidlarning din niqobidagi xurofot va bid’atdan iborat eskilikka, bir tarafdan, qo‘rqa-qo‘rqa kurash boshlagani va, ikkinchi tomondan, yangi turmush qurmoqchi bo‘lgan jadidlar hukmron hokimiyatga qarshi qo‘rqinchli, dahshatli kurash boshladi, deb aytilayotgandek tuyuladi.

Biroq zulm, qorong‘ulik erlari,
Ezuvchini, talovchini qo‘lladi.
Eziluvchi qashshoqlarni, yo‘qsilni,
Ish boshida uzoq choqlar qo‘ymadi.

Bu poetik fikrlar ham yana xotiramizga Turkiston muxtoriyatini soladi. Agar she’r sarlavhasidagi, matnidagi bir, ikki marta ishlatilgan “Parij”, “Kommuna” so‘zlari e’tiborga olinmasa gap Turkiston muxtoriyati haqida ketmayaptimikan, degan xayolga ham boradi, kishi.

Asar nihoyasida quyidagi ikki misra keladi:

Bu kun shunda yonib turgan qizil nur,
Parijdagi kommunaning aksidir!

Ushbu baytdagi so‘nggi so‘z xayolimda negadir takror-takror aylanaverdi: “aksidir” so‘zi “aks etdi”, “in’ikos” ma’nosini emas, “teskarisidir”, degan ma’noni bermayaptimikin, deb o‘yladim. Agar shunday bo‘lsa, she’r nihoyasidagi bir so‘z, asar tagzaminidagi yashirin ma’no asarga tamoman yangi mazmun yuklagan bo‘ladi.

She’rda Parij kommunasi ulug‘lanyapti, u bostirilgan, bo‘g‘ilgan bo‘lsa ham, nuri hozirgacha o‘chmagan. Lekin shoir ko‘z oldida “yonib turgan qizil nur” (“qizil nur” obraziga alohida urg‘u qaratilishiga e’tibor bering) Parij kommunasidan taralgan adolat, ozodlik, erk, insonparvarlik, to‘kis hayot uchun kurash ma’nolarini ifodalovchi nur emas, uning aksidir demoqchi bo‘ladi, nazarimda.

Cho‘lpon Oktabr to‘ntarishidan so‘ng e’lon qilingan tanlovga muvofiq, davrning bir guruh yetakchi shoirlari qatorida “Internatsional”ni o‘zbek tiliga o‘girishda ishtirok etdi. Jadidchilik harakatining faollari qatori Cho‘lponda ham “Internatsional” g‘oyalariga, yangi sho‘ro hukumatining balandparvoz va‘dalariga ma’lum ma’noda ishonchi bor edi. U ham ko‘plar qatori uzoq vaqt orzu qilgan hurlikka erishamiz deb umid qilgandi. Lekin bu orzu-umidlar sarob ekani ma’lum bo‘la bordi va Cho‘lpon ijodida erk, ozodlik, istiqlol g‘oyalari millatparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan holda yanada kuchaydi. Bu kuchayish zamirini sho‘ro istibdodidan qutulish g‘oyalari tashkil etdi. Cho‘lpon “Internatsional”ni tarjima qilish bilan cheklanmay, “Qizil baynalmilal” she’rini yozdi. 1919-yil “Yurish marshi”ni e’lon qildi. Baynalmilalchilik harakati va g‘oyalari tufayli endi nainki Turkiston, balki umuman sharqda adolatga yo‘l ochiladi, chunki G‘arbda bir ulug‘ kuch bosh ko‘tardi, degan ishonchlar ko‘p o‘tmay barbod bo‘ldi. Natijada el-yurtni istibdoddan xoli ko‘rish shoir a’moliga, ijodining leytmotiviga aylana bordi:

Ul kuchdirkim, mazlumlarga yo‘l ochar,
Zolimlarga na’ra tortar: O‘ch, o‘ch, o‘ch?!.

Ejen Potyening “Internatsional”i Cho‘lpon ijodi, ayniqsa, she’riyati uchun besamar ketmadi, ayniqsa, pafos masalasida, asarlari hujayrasidagi po‘rtana, ozodlik va erkka da’vat poetik g‘oyalarning ifoda tarzi Cho‘lpon she’rlarida mustahkamlana borishida, nazarimda, “Internatsional” qabilidagi asarlarning o‘ziga xos o‘rni bor. Xususan, “El bayrog‘i” gazetasining 1919-yil 13-sonida bosilgan, Turkiston muxtoriyatini olqishlab yozilgan she’r va undagi ushbu parchalar bunga dalil bo‘la oladi:

Ko‘z oching, boqing har yon!
Qardoshlar qanday zamon!
Shodlikka to‘ldi jahon!
Fido bu kunlarga jon!

Shoirning, ayniqsa, Muxtoriyat qo‘lga kiritilganini cheksiz olqishlashi, kelgusi hayotga katta umid bildirishi, milliy marshlar yangrashini orzu qilishi va bular tajassumidagi patetika o‘sha davr sho‘ro poeziyasidagi ayrim zo‘rma-zo‘raki, soxta balandparvozlikdan farqli o‘laroq zamondosh vatandoshlarning ko‘tarinki tuyg‘ulariga nihoyatda mos edi:

Muxtoriyat olindi,
Ishlar yo‘lga solindi,
Milliy marshlar cholindi,
Dushman o‘rtansun endi...

Biroq, afsuski, shoirning ishonchga aylanish jarayonidagi umidlari chilparchin bo‘ldi. Sho‘rolar muxtoriyatni qonga botirib, istibdodni davom ettirdi. Cho‘lpon orzu qilgan ozodlik, tom ma’nodagi mustaqillik salkam yetmish besh yildan keyingina qo‘lga kiritildi.

Baxtiyor NAZAROV
akademik

YURT QAYG‘USI

Rossiyada to‘y majlislarida maktab, madrasa va jamiyati xayriyalar foydasiga ionalar jam qilindig‘i har zamon gazetalarda yozilib tursa ham, bizim Xo‘qandda biror rasmiy jamiyatimiz yo‘lig‘i va foydalik ishlar qilmoq odati bizda hanuzda yo‘qliqdan Xo‘qand to‘ylarida diniy va milliy ishlarga iona qilmoq kabilar aslo yo‘qdir. Binobarin bu to‘y ham shundog‘ qorin yorilgancha yemoqdan iborat bo‘ldi qoldi. Shundog‘ bo‘lsa ham, kerak zamon va kerak matbuot ta’siri ila bo‘lsa aholida bilkulliya intiboh (umumiy uyg‘onish) asari yo‘q emas. Bor. 5–10 odam bir yerga kelsalar, masalai zaruriya xususlarida ikki firqaga ajralib bo‘lsa ham muzokaralar bo‘lib turmoqdadur.



TO‘Y VA TARBIYA MASALASI

Menim hech kimning shaxsiyati ila ishim yo‘q. Men har kimdan ziyoda har kimning shaxsini ehtirom qilaman. Lekin umumga, millatga oid xilofi haqiqat ila so‘ylangan so‘zlarga ranjiyman. O‘z shaxsim zarar ko‘rsa, bila turib, sukut ila o‘ta olmay odob va insof doirasida mudofaaga kirishaman. Hissamni ilzom qasdi ila emas, balki haqiqatga tarafdorlik va haqiqatning inkishofi qasdi ilan. Faqat bir so‘z so‘ylab, so‘z tinglarga hanuz-da o‘rganmaganligimiz uchun ko‘b muzokaralarimiz Qashqar shogirdlarining munozara majlisiga o‘xshab haqliq yuzaga chiqmazdan qolmoqdadir. Bu hol mujib taassuf bo‘lg‘onligi kabi ba’zan yakka digarimizning adovatini ham jalb etmakdadur.

Ushbu majlisda hozir kiromdan birov usuli savtiya ilan o‘qumoqda bo‘lg‘on maktab talabalarining salom bermovlari va g‘ayr qusurlaridan shikoyat etmak usul savtiya va qadimiya haqinda ham biroz so‘zlar so‘yladilar. Man usuli jadidiya va qadimiya nizolarini turkistonli qardoshlarimizning og‘izlaridan aslo eshitganim yo‘q. Lekin shu nizo mash’um Rossiyada ham, munda ham hamon no‘g‘oylarimiz ichida hukm surmakdadur. Men shunga ko‘p taassuf qilaman. Shu muqovala nizo’ va jadalning millat o‘rtasidan bir on avval raf’ o‘linmog‘i vojibdir, farzdir. Sarfi no‘g‘oylardan iborat bo‘lg‘on bir majlisda bu nizolarning jarayoni bir qadar afv qilinurliq qabohat azima bo‘lsa ham, lekin sof qalbli va dinga ehtiroman din ismidan so‘ylanilgan har bir so‘zga tez ishonmoq qobiliyati bor mahalliy imomlar va mudarrislar huzurida afv qilinmaslik qabohat, ulug‘ jinoyat va millatga buyuk xiyonatdur.

Biz tatarlar bilodi Turkistonda usul savtiyaning intishori sharafina noil bo‘lg‘on edik. Emdi ig‘roz nafsoniyalar baliyasi o‘laroq o‘rtaga nifoq tuxmi ekib, ul sof qalbli va har kimga mo‘minlik qardoshi nomiga hasan zanli o‘lan mahalliy imom va mudarrislarning usul savtiya haqinda ishtibohlarini mujib bo‘ladurg‘on ahvoldan ijtinob etalim... Makka, Madina, Shom, Misr, Hindiston, Istanbul va soir mamoliki islomiyada usuli jadida ko‘bdan qabul qiling‘on. Lekin ulamo tarafidan ham, avomlar tarafidan ham talabalar adabsiz bo‘ldilar, yoki muallim va muallimalar undoq qilalar, mundoq qilalar kabi ma’nisiz va ham islomiyaga, insoniyatga yoqmaydurg‘on nizo va jadallar aslo eshitilmadur. 7–8 yasharlik maktab bolalarining salom bermagan qusurlarini usuli jadidaga, yoki muallim va muallimaga isnoq qilmoq katta qabohatdur. Muallimlar ham o‘rgatmiylar emas, albatta o‘rgaturlar. Lekin bu kabi odob juz’iyani otalarimiz muallimlardan gina kutmay o‘zlari ham o‘rgatsalar zarar yo‘qdir. Bolalar salom bermaydilar ekan, sabiyliklari hurmatina afv qilib otalarimiz sabiylarga o‘zlari salom bersalar, nima zarar bor?! Faxrul koinot Hazratlari sibyonlarga o‘zlari salom berur edi, degan so‘zlar kitoblarda bor. Ishta muning ila otalarimiz ham sunnatga amal etgan hamda bolalarining salom berib, salom olmoqg‘a o‘rganmaklariga bois savoblik bo‘lurlar edi.


صدای فرغانه

Bu ham xotiralardan chiqmasun: bolalarning tarbiya axloqiyalari maktabdan ko‘ra muhtarama onalar quchog‘indan axtarilmog‘i lozimdir. Emdi bolalarimizni matlub darajada adablik va tarbiyalik qilmoq xavohishinda bo‘lsaq, ishta onalarimizni “ilm tarbiyat ul atfol”dan bahrador etmalimiz. To‘g‘risi, bolalarimiz inson bolalari kabi bo‘lsunlar desak, eng avval boshlab onalarimizni tarbiya va ta’lim etalim. Yo‘qsa bolalardan, maktablardan ma’mul bo‘lgan foyda hosilga kelmas.

Tamaddun va maorifning insonlar orasiga surat ila intishor bo‘lmog‘i uchun ham onalarimizni yoxud ona bo‘ladurg‘on qizlarimizni tarbiya va ta’lim qilmoqimiz zarurdir. Bizku er bolalarimizni ham durust tarbiya qilg‘onimiz yo‘q. Lekin er bolalarimizni qancha yaxshi tarbiya qilsak ham kelajak asrda ona bo‘ladurg‘on qizlarimiz tarbiya qilinmaganda biz hamon yarim jonlikdan, mag‘lubchilikdan najot topa olmasmiz. Chunki xotun demak nav basharning yarmi demak bo‘lg‘onligi uchun xotunlar, qizlar tarbiya qilinmasa, yarim millat tarbiyasiz qoldi demak bo‘lurki, bu esa ma’nan va ruhan mag‘lubchilik demakdir.

Mana Ho‘qandda bir ovuch ruslar bordur. Bular musulmonlarga qaraganda naqadar oz va markazdan naqadar uzoq o‘ldiqlari holdakina 2–3 joyda muntazam anas maktablari bordirki, bu hol dunyoda inson o‘lub yashamakning yagona chorasi onalarimizning ham tarbiyalik bo‘lmoqlariga marbut ekanligini ochiq ko‘rsatmakdadur.

Biz tatarlarda qancha sanalar farz, nizo’ va mutasalsil jadallardan keyin hamdlar o‘lsun Ho‘qandda ikki yerda qizlar maktabi ochmoqg‘a muvaffaq bo‘ldiq. Bu juda yaxshi va juda asosli ishdir. Binobarin bu ishga sathiy nazar ila nazar qilmay asosli va chuqur nazar ila qarash lozimdir... Emdi o‘zimizgagina maxsus bo‘lsa ham maktab anas ochmoqimiz elanda mahalliy musulmonlarga namuna o‘laroq tarixda go‘zal nom olmoq sharafina noil o‘lalim.

Bas salqin so‘filiq sotib yoki teskari o‘g‘li teskarining mulkina xizmat qiluv bahonasi ila riyolanib muallim va muallimalarning shaxsiyatidan bahs qilg‘ondan ko‘ra maalmumkin so‘z, qo‘l, ish va til ila shu maktablarning rivoj va taraqqiysiga xizmat qilmoq hammamizga lozimdir. Lozimgina emas vojibdir, farzdir. Xizmat qilmoq qo‘limizdan kelmasa, aqalli zarar qiluvdan va bularga qarshi so‘z so‘ylamakdan tiyilaylik. Din va aql, diyonat va shariatning iqtizosi ham shundog‘ emasmi?..


Muallim Shokir al-MUXTORIY
“Sadoi Farg‘ona” gazetasi
1914-yil, 27-sonidan.

B.NURMUHAMMAD
nashrga tayyorladi

TAQVIM

ADABIY TANQIDGA BIR NAZAR

(A. Sa’diyning “O‘zbek yosh shoirlari” maqolasi munosabati bilan)



Vadud MAHMUD

Shu kunlarda o‘zbek matbuotida o‘zbek adabiyoti to‘g‘risida ko‘pgina narsalar yozila boshlandi. Bu esa bizning uchun buyuk ahamiyat bilan tekshiriladurg‘on bir maydondir. O‘zbek adabiyotiga oid jiddiy bir narsa yozmoq uchun keragicha zamin va vosita yo‘q darajasida bo‘lg‘on shu zamonda bunday harakat ko‘b qiyindir. Chunki bu haqda haligacha hech bir qadam otilmag‘on va hech tajriba yo‘qdir. Bu mavzuda tajriba o‘laroq A.Sa’diy o‘rtoqning bir necha maqolalari qo‘limizdadir. Albatta, shunday ishlanmagan bir mavzuga bu kun bizning-da ishtirok etishimizga, to‘g‘risi, A.Sa’diy o‘rtoqning “O‘zbek yosh shoirlari” unvoni ostidagi adabiy tanqidlari sababchidir. Bo‘lmasa hali biz hech bir jihati ochilmag‘on – xom bir mavzu ustida birdan umumiy fikr bayon etishga jasorat qila olmas edik. Bizga qolsa, o‘zbek yosh shoirlarining tekshirilishi uchun boshlab ularning asarlari birma-bir atroflicha tekshirilib, so‘ngra har shoirga ayricha qiymat bergach, umumiy fikrga keyindangina erishmak muvofiq bo‘lar edi.

Biz A.Sa’diyning maqolasini birinchi qatla ko‘zdan kechirganda fahsh xatolar ko‘rganimizdan bu haqda chuqurroq taftishlarga kirishdik. Biz boshlab o‘zbek yosh shoirlari sarlavhasini ko‘rub, mavzu haqida qanday tasavvurlarda bo‘lg‘on bo‘lsaq, butkul teskarisini ko‘rganimizdan bu haqda sukut bilan o‘tirishni o‘zimizga muvofiq ko‘rmadik. Boshlab shuni aytishga to‘g‘ri keladirki, shuncha katta bu mavzuni olg‘on yozg‘uchi hech bir jiddiy tekshirishga kirisha olmag‘on...

Har holda Fitratni shoir va adib o‘laroq Turkiston 1910-yildan beri taniylar, kim o‘shal vaqtlarda uning yozg‘on she’rlari hatto yozma holda qo‘ldan qo‘lg‘a yurar edi. Hali bu ham nari tursin, Bolqon urushi vaqtida Adarnaning bulg‘orlar tomonidan olinishi munosabati bilan Fitratning aytgan marsiyasi yolg‘iz Turkistonda emas, Eron, Afg‘oniston va Hindistonlarg‘acha tarqalib necha tillarda doston bo‘lg‘oni har bir turkistonliqqa ochiqdir. Faqat shugina Fitratning qanday bir shoir va qachon tanilg‘onini ko‘rsatishga yetsa kerak.

A.Sa’diy o‘zining qanday bir ishka urung‘oniga sira qimmat bera olmag‘on ko‘rinadur. Chunki oddiy bir tarjimai hol yozadurg‘on kishi kabi ham tekshirishni ortiqcha topadir. Va aytadir: “Fitratning bizga ma’lum bo‘lg‘on asarlari “O‘zbek yosh shoirlari” majmuasidagi she’rlari bilan “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” degan tomoshaliqlari ham 23 nchi yilda bosilg‘on “Qiyomat” degan xayoliy hikoyasidir”. Fitratning yozg‘on asarlarini, hech bo‘lmasa, otlarini ham bilishni hojat bilmaydir. “Tekshirish” da’vosi bilan o‘rtag‘a otilg‘on bu zot bilmasligi bilan kulgi bir holga tushib qoladir.


تورکستان

Sa’diy o‘rtoq, bir yozuvchining qanday kuchga ega bo‘lganini bilish uchun uning yozg‘on asarlarini ko‘rib tekshirishga ehtiyoj yo‘q, deb bilgan bo‘lsangiz, buni bilingizki, bu ishni sizdan boshqa kishi qilmaydir. Yozg‘uchini tekshirish uchun uning asarlarini ko‘rish kerakdir va shundan keyingina unga bir qiymat bermak mumkin bo‘lur. Bu qilg‘on ishingizga biz hech bir ot topa olmadik...

...Ma’lumdirki, adabiyot ijtimoiy hayotning natijasidir. Bir millatning ijtimoiy hayotidir. Shu asos qabul qiling‘ondan keyin ochiq belgilikdir, kim bir millatning adabiyotini tekshirganda u millatning ijtimoiy hayotini tekshirish kerak. Holbuki o‘zbek adabiyotini turlik davrlarga bo‘lib tekshirish da’vosi bilan chiqqan A.Sa’diy o‘zbek millati hayotini tekshirishini ortiq ko‘rgan, ya’ni adabiyotni ijtimoiy hayotdan ayri o‘laroq tekshirgan va shu asosga tayanib o‘z fikrlarini o‘rtag‘a tashlag‘on...

...Har davrning ijtimoiy va iqtisodiy hodisalarini ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagina axtarish kerakdir. Ko‘kdan shakar tushish davri o‘tgan...

So‘zimizning oxirida bu “adabiy tanqid”ga o‘zimizning qarashimizni aytib o‘tishni muvofiq ko‘ramiz.

Birinchidan, bu bir adabiy tanqid emasdir. Chunki, bunda “adabiy” ma’no ortida hech bir narsa yo‘qdir. Tilni, hayotni, ruhni va asosan she’rni tushunmay yuritilgan fikrlarni adabiy deb atamoq munosib emasdir. Shu e’tibori bilan bu ilmiy narsa ham emasdir. Ikkinchidan, bu “tanqid” emasdir. Bu bir so‘kishdir. Bir muni “g‘unchasi ochilmagan hakam”, “Istanbul soya foyelarida yurgan” kabi ta’birlar bilan yoritilg‘on bir muhokama tanqid emasdir.

Uchinchidan: bu yozuvda usul buzuqdir. Ijtimoiy hodisalarni matiryolist usuli bilan tekshirmaslik to‘g‘ri fikrni topa olmaslikdir..

“Turkiston” gazetasining
1924-yil 222-230-sonlaridan
B. NURMUHAMMAD
qisqartirib nashrga tayyorladi.

XOTIRA AZIZ

(Boshlanishi o‘tgan sonda.)

Toshxo‘jayev Muhammadjon 5274-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1885-yili tug‘ilgan, avval quloq qilingan. Hibsga olingunga qadar O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi tayyorlov ijroqo‘mida inspektor bo‘lib ishlagan. “Turon”, “Sho‘roi Islom”, “Turk Adami Markaziyati ”, “Ittihod va taraqqiy” aksilinqilobiy tashkilotlar, Eserlar partiyasi va aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi sifatida hamda 1919-yili Osipov qo‘zg‘olonida faol qatnashganlikda, targ‘ibot-tashviqot olib borganlikda ayblangan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Alimov Muhsin 4542-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan. 1900-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Sobiq savdogar, ikki marta sudlangan. Hibsga olinguncha aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Avval Turkiya zobitlari bilan aloqada bo‘lib, bosmachilarga ko‘maklashganlikda, bosmachilar bilan “Milliy ittihod”ning Andijon filiali o‘rtasida aloqa o‘rnatib, doimiy ravishda aksilinqilobiy, millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, trotskiychilar va zinovyevchilarga xayrixohlikda ayblangan.

Navro‘zov Cho‘li Buxoro sektori taqdim qilgan 2340-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1886-yili tug‘ilgan. Turkmaniston SSR Chorjo‘y okrugi Sayat rayonidan 1921-yildan aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. 1920-yildan 1934-yilgacha VKP (B) a’zosi, ijtimoiy yot unsur sifatida partiyadan chiqarilgan, hibsga olingunga qadar Buxoro shahridagi muzeyda komendant bo‘lgan. Aholi orasida aksilinqilobiy millatchi sifatida targ‘ibot olib borganlikda, ochlik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda ayblangan.

Ibodullayev Tavfiq Hikmatovich Buxoro sektori taqdim qilgan 2438-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1899-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi, Buxoro Xalq sovet respublikasi davrida davlat nazorati ministri, xalq ta’lim ministri o‘rinbosari, VKP(b)ning sobiq a’zosi bo‘lgan. 1934-yili partiyani tozalash paytida partiyadan chiqarilgan. Hibsga olingan vaqtdagi mashg‘uloti aniq emas. Aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, Stalin konstitutsiyasiga qarshi gapirganlikda va xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

Ne’matov Kamol Buxoro sektori taqdim qilgan 2326-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1880-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Avval sudlangan va jazo muddatini o‘tagan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi sifatida bosmachilar to‘dasini tashkil etishda faol qatnashganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Ochildiyev Nazrullo (hujjatda Narzulla – R.Sh.) Buxoro sektori taqdim qilgan 2322-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1880-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi, sudlangan, hibsga olingunga qadar “O‘zbeksavdo”da magazin mudiri bo‘lgan. Atrofidagi xizmatchilar orasida targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Mirxojayev Qilich Buxoro sektori taqdim etgan 2450-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1884-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, sobiq yirik savdogar. Hibsga olingunga qadar “Mehnatkash” artelida do‘kon mudiri, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida partiya va hukumat tadbirlarini diskreditatsiya qilishga qaratilgan targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Toshpo‘latov Qori Abdulla Buxoro sektori taqdim qilgan 2441-sonli ish bo‘yicha hukm qilingan. 1879-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, Buxoro respublikasi Adliya vaziri o‘rinbosari va Buxoro respublikasi-markaziy ijroiya komiteti raisi, “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida sovet hokimiyatini diskreditatsiya qilishga qaratilgan targ‘ibot olib borganlikda, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkiloti rahbarlari va a’zolari bilan aloqada bo‘lganlikda ayblangan.

Mahmudov Bahouddin Buxoro sektori taqdim qilgan 2434-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1894-yili tug‘ilgan, Samarqand shahridan, diniy xizmatchi, imom, aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olinguncha advokatlar kollegiyasida xizmat qilgan. “Milliy ittihod”ning topshirig‘i bilan faol ish olib borib, partiya va hukumat tadbirlarini diskreditatsiya qilishga qaratilgan targ‘ibot olib borganlikda ayblangan.

Hakimov Shukurullo Oqsoqol Buxoro sektori taqdim qilgan 2325-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1882-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, aksilinqilobiy “Milliy ittihod”ning a’zosi, hibsga olinguncha Buxoro shahar sovetida xo‘jalik mudiri bo‘lgan. Aksilinqilobiy “Milliy ittihod” tashkilotining ishtirokchisi, tashkilot a’zolari o‘rtasida aloqa o‘rnatib, Xo‘jayevning ishdan olinishi munosabati bilan sovet hokimiyatiga norozilik bildirganlikda ayblangan.

Aliyev G‘ulom Buxoro sektori taqdim qilgan 2442-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm qilingan. 1893-yili tug‘ilgan, Buxoro shahridan, sobiq savdogar, sudlangan, jazo muddatini o‘tagan. Atrofidagilar orasida doimiy ravishda partiya va hukumatni diskreditatsiya qilishga qaratilgan targ‘ibot olib borganlikda, ochlik to‘g‘risida mish-mish tarqatganlikda, “Milliy ittihod” millatchi tashkilot bilan aloqada bo‘lganlikda ayblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
muzeyning ilmiy xodimi.

(Davomi kelgusi sonda.)

ILLAT

“QUTURISH” QONUNI

**“Zavqiy osilurg‘a himmatidin
Dor bog‘ladi bir baland terakka”.**

(“Ahli rasta hajvi” qasidasidan)

Internetda bir yilda bir ilmiy rahbar qo‘l ostida tayyorlangan o‘nlab dissertatsiyalar himoya qilinayotgani, boshqa davlatlarda himoya qilingan dissertatsiya o‘zbek tiliga tarjima qilinib yoqlangani haqida xabarlar tarqaldi. Qanday qilib? Axir dissertatsiya degan matoh ilmiy jurnallarda e’lon qilingan maqolalar asosida yozilishi kerak-ku?! Bunday maqolalar orasida xalqaro reytingga ega jurnallarda chop etilganlari ham bo‘lishi talab qilinadi-ku? Haqqast rost. Ammo so‘nggi o‘n yil ichida ana shunday reytingga ega, nomi ilmiy, aslida g‘ayriilmiy jurnallar yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorinday potirlab ilm dunyosini bosib ketdi. Ular orasida xalqaro miqyosda e’tirof etilgan SCOPUS, WoS kabi ma’lumotlar bazalarida qayd etiladiganlari ham ko‘p (statistik ma’lumotlar uchun *(q.: https://nppir.ru/05np121.html.).*



Bunday olib qaraganda, bu juda ham yaxshi – maqola chop etadigan mualliflar, ya’ni olimlar ko‘paymoqdaki, jurnallar ham, soni ham shunga qarab ortadi. Olimlar ko‘paysa, ilmiy-texnika taraqqiyoti kuchayadi, ta’lim, san’at, ma’naviyat yaxshilanadi va hokazo. Amalda biz buning aksini ko‘ryapmiz. Juda yorqin misol: so‘nggi 4-yil ichida mamlakatda pedagogika fanlari bo‘yicha dissertatsiya yoqlaganlar soni keskin ortgan, ammo xuddi shu davrda ta’lim sifatini baholovchi xalqaro PISA test sinovlarida O‘zbekiston 81 ta mamlakatdan 80 o‘rinni egallab, avvalgi sinovlardagiga nisbatan pastroq natija ko‘rsatgan.

Son o‘sishi sifatga salbiy ta’sir qilayotgani fanning boshqa sohalarida ham ma’lum bir darajada kuzatiladi.

Sababi ravshan: dissertatsiyalar ichida talabga javob beradiganlari qatorida talabga mutlaqo javob bermaydiganlari, jumladan, oshkora qalbakilarining ulushi ko‘paymoqda.

Dissertatsiyalar bilan bog‘liq muammo keng qamrovli mavzu. Bu yerda muammo bilan bog‘liq yuqorida zikr etilgan omil – dissertatsiya uchun ilmiy jurnallarda maqola chop etish borasidagi, fan tarixida avval ko‘rilmagan hodisa to‘g‘risida batafsilroq to‘xtalamiz. (Ta’kidlaymiz – aynan dissertatsiya himoya qilish uchun, ilm-fanni yangiliklar bilan boyitish uchun emas. Dissertatsiya yoqlash maqsadidagina chop etiladigan maqolalar yillar o‘tishi bilan unutilishga mahkum.)

So‘nggi 20 yil ichida “ilmiy” deb sifatlanadigan jurnallar soni keskin oshdi. Bu jarayon hamon davom etmoqda – har yili har bir fan sohasi bo‘yicha yangi jurnallar ta’sis etilmoqda. Muammo shundaki, yangi ochilayotgan jurnallarning talayi “yirtqich” tabiatli. Bu atama ham xuddi shu davrda tug‘ildi. “Yirtqich” jurnallarda maqola chop etish pullik bo‘lib, puli to‘langan maqolaning sifati qanday bo‘lishidan qat’i nazar qaytarilmaydi, bosaveriladi. Albatta, xolis ilmiy jurnallar orasida ham pul to‘lanishi lozimlari yo‘q emas, faqat to‘lanadigan summa asosan muallifga maqolasidan nusxa yuborish uchun pochta haqini qoplash miqdorida bo‘ladi (50 AQSH dollari atrofida). Ulardan farqli, “yirtqich” jurnallar biznes maqsadida ochiladi. Bu hodisa fan tarixidagi g‘aroyib yangilikdir. Chunki to XX asrning 80-yillarigacha u kuzatilmagan – jurnal biror ilmiy markaz organi bo‘lib, shu markaz mablag‘i evaziga nashr etilgan. Bunday jurnallar xalqaro ilmiy jamoatchilik o‘rtasida obro‘ uchun kurashgan, mavqeini e’zozlagan, yuzaki, past saviyali maqolalarning bosilishiga yo‘l qo‘ymagan. Buning uchun tahririyatga kelib tushgan maqolalar xolis ilmiy taqrizlardan o‘tkazilgan. Misol uchun, 1965-yildan Minskda chop etila boshlagan “Differensial tenglamalar” jurnali hatto maqola muallifiga valyutada gonorar to‘lar edi. Chunki bu jurnal tahririyati chop etiladigan maqolalarga shu qadar yuksak talab qo‘yar ediki, u mashhur Shpringer nashriyot kompaniyasi tomonidan sonma-son ingliz tilida ham chop etilar va dunyo miqyosida minglab obunachilarga tarqatilar edi. (Hozir bu jurnal M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti mablag‘i hisobiga chop etiladi va ingliz tiliga tarjima qilinadi. Bosh muharriri – universitet rektori akademik V. A. Sadovnichiy.)

“Yirtqich” jurnallar esa maqola uchun pul to‘lansa bo‘ldi, u nomigagina taqrizdan o‘tkazilib, hatto umuman o‘tkazilmasdan chop etilaveradi. Internetda “bizning jurnalga maqola topshiring, ikki hafta ichida bosib chiqaramiz” qabilidagi e’lonlar ko‘p.

Qizig‘i shundaki, “yirtqich” jurnallar ta’sischilari tomonidan xalqaro reytingini ko‘tarish texnologiyasi ham ishlab chiqilgan, shu usul bilan impakt-faktori 5 va undan yuqori ko‘rsatkichga erishib olganlari ham oz emas. (Qiyoslash uchun: “Differensial tenglamalar” jurnalining ingliz tilidagi versiyasi 0,12 impakt-faktoriga ega. Ajoyib albatta, yuksak saviyali jurnalning ko‘rsatkichi 0,12 bo‘lgani holda, qalbaki maqolalarni bosadigan jurnal ko‘rsatkichi undan 50 marotaba katta bo‘lsa!)

“Gazeta.uz” sayti o‘zining “Loxotron v sovremennoy nauke” sarlavhali xabarida diqqatga sazovor namuna keltirgan (https://www.gazeta.uz/ru/2022/02/26/fraud-in-science/). U muhokama qilinayotgan mavzuga yaqqol dalil bo‘lgan.

“Yana bir shubhali jurnal – Theoretical and Applied Science. Rus va ingliz tilida chop etilayotan bu jurnal bilan tanishish savollar keltirib chiqaradi. Jurnal muqovasida nomining ruscha varianti “Teoretičeskaâ i prikladnaâ nauka” deb yozilgan! Uning saytida Fransiyada ro‘yxatdan o‘tgani, ta’sischisi esa International Academy of Theoretical & Applied Sciences (Publishers International Linking Association, USA) ekanligi qayd etilgan. Jurnal sahifalarida chop etiladigan joy “Filadelfiya, SSHA” deyilib, bog‘lanish (kontakt) uchun Viktoriya ismi berilgan (familiyasi yozilmagan) va Almati shahrining kodi bilan telefon raqami keltirilgan. Jurnalning bosh muharriri A.Shevsov esa Taraz shahridan (Qozog‘iston) bo‘lib, maqola uchun pul uning shaxsiy hisob raqamiga yuborilishi aytilgan.

Ilmiy jurnallarning reytingini baholovchi Advanced Science Index saytida ko‘rsatilishicha, uning (ya’ni, Theoretical and Applied Science jurnalining – A.A.) ro‘yxatga olingan raqami (ISSN) noto‘g‘ri. “elibrary.ru” sayti ma’lumotiga ko‘ra, impakt-faktorni aniqlash bilan shug‘ullanadigan, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan JSR (AQSH) ma’lumotlar bazasida so‘z yuritilayotgan jurnal ro‘yxatga olinmagan. Ammo jurnal o‘zining saytida impakt-faktorini IF OAJI (AQSH) bo‘yicha 0,360, GIF (Avstraliya) bo‘yicha 0,564, ISI (Birlashgan Arab Amirliklari) bo‘yicha 1,582, RINS (Rossiya) bo‘yicha 3,939, IF ESJI (Qozog‘iston) bo‘yicha 9,035 deb ko‘rsatgan. Holbuki, RINS bu jurnalga reyting bergan emas.

Jurnal tahririyatining 37 a’zosidan 16 nafari O‘zbekistondan. 2021-yil 12-sonida 157 ta maqola bosilgan. Shundan bittasi Gruziyadan, uchtasi Indoneziyadan, 15 tasi Rossiyadan va 138 tasi (!) O‘zbekistondan. Va hokazo.

“Gazeta.uz” saytining bu xabarida bugun ilm-fanda chuqur tomir otgan qalbakilik haqida boshqa ko‘plab ma’lumotlar ham keltirilgan, unga qarshi turishga qaratilgan takliflar berilgan. Xabar e’lon qilinganiga ikki yil bo‘layotganiga qaramay, bu borada biror chora ko‘rildimi-yo‘qmi – ma’lum emas. Chamasi, qalbakilik “suv yuqmas” illat. Aksincha, bu davr ichida “yara yana ham chuqurroq fasodlab” ketgani – o‘nlab “yirtqich” jurnallar ochilayotgani yaxshi ma’lum. Hatto pul to‘lansa bo‘ldi, maqolani o‘zi yasab beradigan jurnallar, nomi bor-u o‘zi yo‘q, qiladigan ishi “maqola chop etildi” degan sertifikat berish bo‘lgan “jurnallar” ham paydo bo‘lmoqda.

Internetda aniq dalillar keltirilgan boshqa xabarlar ham ko‘p. Wikipedia saytining ma’lumotiga ko‘ra (https://ru.wikipedia.org/wiki) 2010-yildan 2014-yilgacha “yirtqich” nashrlar maqolalar chop etish faoliyatini 53 mingtadan 420 mingtaga yetkazgan, bunday jurnallar soni 8000 taga borgan. Bugunga kelib bu ko‘rsatkichlar o‘n karra ko‘paygan deyish mumkin. O‘zbekiston fuqarolari bo‘lmish ilmiy daraja talabgorlari ana shunday “yirtqich” jurnallarda maqola bostirish uchun millionlab dollar valyuta sarflayotgani achinarli.

Shu yo‘sinda Oliy attestatsiya komissiyasi talablariga muvofiq maqolalar chop etildi ham deylik. Ana shu maqolalar bo‘yicha dissertatsiyalar hozirlanayotgan ekan, hali uni yoqlash ham kerak-ku. Buning uchun maxsus seminarda ma’ruza qilish, seminar ikkita taqrizchi tayinlashi, ular ijobiy xulosa berishi, ma’ruzani tinglagan mutaxassislar savol-javob qilib, ochiq ovoz berish yo‘li bilan himoyaga tavsiya etishi kerak. Ayni paytda seminar yetakchi tashkilot hamda falsafa doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiyaga ikkita, fan doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiyaga uchta rasmiy opponent tayinlashi lozim. Yetakchi tashkilot ham, opponentlar ham dissertatsiyani sinchiklab o‘qib chiqishi, shu asosda xolis xulosa chiqarishga qodir bo‘lishi talab etiladi. Ularning taqrizlarida birinchi navbatda dissertatsiyaning ilmiy natijalari yangimi yo yangi emasmi, natijalarning salmog‘i ilmiy daraja berish uchun yetarlimi yo yetarli emasmi kabi savollarga javob berilishi shart. Shundan so‘ng tegishli sohaning yetuk mutaxassislari jam bo‘lgan ilmiy kengashda himoya o‘tkaziladi. Unda ilmiy darajaga talabgor dissertatsiya yuzasidan kengash a’zolarining savollariga hamda taqrizlarda qayd etilgan xato va kamchiliklarga javob berishi kerak. O‘tkazilgan diskussiya natijasi bo‘yicha kengash a’zolari, bu safar yopiq ovoz berish yo‘li bilan, dissertant tegishli ilmiy darajaga munosib yo munosib emasligi haqida yakuniy xulosa chiqarishadi. Ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum bu jarayonni bu yerda tasvirlashdan maqsad – ushbu paradoksal holatga e’tibor qaratish: shuncha chig‘iriqqa qaramasdan, qalbaki dissertatsiyalar eson-omon muvaffaqiyat bilan himoya qilinib kelinayotgan ekan, himoya qilish jarayoni sog‘lom emas.

Buning sabablari ko‘p. Ularni birma-bir sanaydigan bo‘lsak, gap cho‘zilib ketadi. Faqat bitta sababga to‘xtalmasdan iloj yo‘q. Uni “qalbakilikning quturish qonuni”, deb atasa munosib bo‘ladi. Bu “qonun” mohiyati shundan iborat: qalbaki falsafa doktorlari qancha ko‘paysa, qalbaki fan doktorlari proporsional ravishda ko‘payadi, qalbaki fan doktorlari qancha ko‘paysa, ular o‘zlari kabi qalbaki falsafa doktorlarini ko‘paytiradi, hatto o‘zlari dissertatsiya himoya qiladigan kengashlar tuzib olishga kirishadilar. Qarabsizki, qalbaki dissertatsiyalar va soxta ilmiy darajalilar soni geometrik progressiya bilan o‘sa boshlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, fanda qalbakilik quturadi.

Toki keskin choralar ko‘rilmas ekan, bu hodisa yil sayin kuchayib, jamiyat uchun noxush oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin. Ulardan eng asosiysi – qalbaki fan haqiqiy fanni bosib ketishidir. Hozirning o‘zidayoq qalbaki olimlar yetishtiradigan “ilmiy maktablar” vujudga kelgan.

Bu hodisa ma’lum nuqtasiga yetganda, uni tuzatish, o‘nglash murakkablashadi, chunki qalbaki olimlar mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotining hamma sohasiga kirib boradi, turli pog‘onadagi mansablarni egallay boshlaydi. Qolaversa, “quturish” yuqumliligi bilan xavflidir – hozirgacha halol ish tutayotgan olimlarni ham o‘z girdobiga tortib ketishiga shubha yo‘q. Bu yoqda esa “akademiklikka da’vogar kamida ikkita fan doktori (DSc) tayyorlagan bo‘lsin, qancha ko‘p falsafa doktori va fan doktori tayyorlagan bo‘lsa, shuncha yaxshi”, degan talab. Fanlar akademiyasi a’zoligiga kelgusi saylovgacha ikkita “fan doktori” tayyorlagan da’vogarlar necha marta ortarkin?

Yana bir jihat. Kim ilm-fandaki qalbakilik qildi – unday odamdan har qanday qabihlikni kutish mumkin. Ayniqsa, biror “jadid” ilm-fanni qalbakilikdan himoya qilish masalasini ko‘tarsa, uni “qumursqalar yoppa talab” (Abdulla Oripov iborasi) tashlashlari hech gap emas.

Nimadir qilish kerak. Bu birinchi navbatda ilm-fan ahlining vazifasi, fan fidoyilarining burchi. Zotan, ilm-fanni qalbakilashtirishga tomoshabin bo‘lib turish aslan unda ishtirok etishdir, qalbaki dissertatsiyalarni qo‘llab-quvvatlab ovoz berish esa shunchaki vijdonsizlik emas, haqiqatga ham, xalqqa ham xiyonatdir.

Abdulla A’ZAMOV,
akademik, O‘zbekiston fan arbobi

TILBILIM

“MO‘LJAL”

Qozoq va qirg‘iz tillarida “boljol” degan so‘z bor. Bu so‘z o‘zbek tilida “mo‘ljal” degan ma’noni beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (I tom, 1981-yil, 489-bet) unga shunday izoh berilgan: Mo‘ljal — oldindan ko‘zlab, o‘ylab qo‘yilgan reja, marra; chama, taxmin; nishonga olingan yoki olinadigan narsa, nishon.



“Bir ishni oldindan mo‘ljallash”. Bu so‘zning hozirgi tilimizdagi fe’l shakli – “mo‘ljallamoq”, ammo qadimda “bolja-(moq)” shakli bo‘lib, “biror ishni oldindan belgilash, joy va vaqtni kelishib olish” kabi ma’nolarni bildirgan. Ko‘pchilik mutaxassislar bu fe’lni asli mo‘g‘ulcha deb taxmin qiladi. Chindan ham, hozirgi mo‘g‘ul tilida ayni shu ma’noni bildiruvchi – “bolju” (bolǰu) fe’li bor, qizig‘i shundaki, “Mo‘g‘ul tillari etimologik lug‘ati”da mo‘g‘ulcha “bolju” o‘z navbatida turkiy “bol-” (“bo‘lmoq”) o‘zagidan yasalganligi aytiladi (ESMYA.T.I.M.2015.97-b.). Bundan esa “mo‘ljal”, “boljol” yoki “bolja” mo‘g‘ulcha emas, turkcha negizga ega ekanligi ayon bo‘ladi.

Qadimgi turkiyda ikkita “bol-” arxetipi bo‘lgan. Ulardan biri – hozirgi tilimizdagi “bo‘lmoq” fe’li bo‘lib, barcha turkiy tillar, shuningdek, mo‘g‘ul tillari, qolaversa, Uzoq Sharqdagi ba’zi tillarda ham “bol-” o‘zagi bir xil ma’nolarda qo‘llanadi (O‘g‘uzlarda o‘rta asrlarda mazkur o‘zakning birinchi tovushi – “b” tushib qolib, “bo‘l-” – “o‘l”ga aylangan va hozir ham o‘g‘uz lahjalarida “o‘lmak” shaklida ishlatiladi. Ammo keyinchalik “o‘lmak” shakli ham o‘g‘uzlardan tilimizga qaytib kelgan, shu bois, ayniqsa mumtoz adabiyotimizda “bo‘lmoq” bilan birga “o‘lmak”ka ham ko‘p duch kelamiz).

Qadimgi turkiydagi ikkinchi “bol-” esa: “topmoq, izlamoq, istamoq, erishmoq, yetishmoq” kabi ma’nolarni bildirgan. Lekin bu shakl hozir tilimizda saqlanmagan. Mahmud Koshg‘ariy “Devon-u lug‘otit-turk”da unga: “Boldï – topdi”, – deb izoh beradi (DLT.II t.T.1961. 30 b.). Ahmad Yugnakiydan o‘qiymiz: “Bilig bil saadat yolini BOLA”, – ma’nosi: “Bilim bil, saodat yo‘lini IZLA”. Yoki “Qutadg‘u bilig”da shunday deyiladi: “Ko‘ngil arzusin BOLsa o‘zka tatig‘”, – ma’nosi: “Ko‘ngil orzusiga ERISHSA, o‘zi uchun yoqimlidir”.

“Mo‘ljal” (“boljol”) ham “istalgan, izlangan” ma’nolariga yaqin, shu bois, bizningcha, “bolja” fe’li, “Mo‘g‘ul tillari etimologik lug‘ati”da ta’kidlangani kabi “bo‘lmoq” ma’nosidagi turkcha “bol-”dan emas, balki biz yuqorida keltirgan “topmoq, istamoq, izlamoq, erishmoq” ma’nosidagi ikkinchi “bol” o‘zagidan yasalgan. Qiyoslang: “bolja-” – “ista, tanla”, “boljol” – “istalgan, tanlangan”.

Bu so‘z garchi turkiy o‘zakka ega bo‘lsa-da, “bolja-” fe’li va “boljol”, chamasi, mo‘g‘ul tilida shakllangan. Har holda, bu so‘zni aynan “boljal” shaklida biz uchratgan eng qadimgi manba bu – “Mo‘g‘ullarning sirli tarixi” asari bo‘lib, asarning 184-paragrafida: “bolǰal” – “oldindan kelishilgan, mo‘ljallangan joy” ma’nosida qo‘llangan (Pelliot P. Histoire secrète des Mongols, §184.r.63.. P.Pelleo transkripsiyasi).

Mumtoz adabiyotimizda biz ko‘proq bu so‘zning “buljor” shakliga duch kelamiz. Xususan, Navoiy asarlarida ham “buljor” – “qo‘shin yurishga otlanganda to‘planish manzili, to‘planishga va’da vaqti” ma’nolarida ko‘p uchraydi. “Saddi Iskandariy”dan bir misra: “Chu yettuk aning joru buljoriga”, – ma’nosi: “Nihoyat, jang qilish va’dalashilgan joyga yetdik”. Qizig‘i shundaki, “buljor” – o‘tgan asrlarda asosan harbiy atama sifatida qo‘llanilgan.

Harbiy atama sifatida “buljor”ning “Boburnoma”da qo‘llanishi diqqatga sazovor: “Javon-g‘or va g‘ul o‘z buljorlaridin yakdast to‘ra kiyurub, shotu qo‘yub yopishtilar”(162-b.), – ma’nosi: “Qo‘shinning so‘l va markaz qismlari o‘z turgan joylari (pozitsiya)laridan hamjihatlik bilan to‘ra (qalqon) va narvonlar qo‘yib (devorlarga) yopishdilar”. Ushbu o‘rinda “buljor” – hozirda harbiy atama sifatida qo‘llaniladigan fransuzcha so‘z – “pozitsiya” ma’nosida kelgan. Umuman, “Boburnoma”da asar davomida “buljor” so‘ziga 30-40 marta duch kelamiz, ba’zi o‘rinlarda bu so‘z: “pozitsiya, qo‘shin turgan joy”, ba’zi o‘rinlarda: “kelishilgan vaqt, uchrashish va’dalashilgan joy”, “muddat” kabi ma’nolarda ishlatilgan. Shuningdek, Bobur uch o‘rinda bu so‘zni “mo‘ljor” shaklida ham qo‘llaydi (“mo‘ljor qo‘porib, yer yasamoq uchun” 256-bet) va har gal bu so‘z to‘plarning oldiga to‘siq qilib tuproq uyub do‘nglik hosil qilishga nisbatan ishlatilgan (Boburnoma.T.2002.).

Abduvohid HAYIT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 4124
Lotin yozuvidagi adadi – 11785
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
(71) 233-11-07

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 19:00
Sotuvda narxi erkin.